ISSN: 2181-3035





Buxoro shahridagi Sitorai Mohi Xossa yodgorligi

TALQIN VA TADQIQOTLAR

№ 15

Respublika ilmiy-uslubiy jurnali

Google Scholar | Cyberleninka | Zenodo | Advanced sciences index | Open AIRE

25.12.2022

@TALQINVATADQIQOTLAR

Aniq fanlar	Texnika fanlari	Pedagogika fanlari	Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tabiiy fanlar	Iqtisod fanlari	Arxitektura	San’at va madaniyat fanlari
Tibbiyot fanlari	Filologiya fanlari	Qishloq xo‘jaligi	Jismoniy tarbiya va sport

(+99891-152-93-14) talqin@bk.ru www.talqinvatadqiqotlar.uz

TALQIN VA TADQIQOTLAR

RESPUBLIKA
ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

15-son 2-qism

25. 12. 2022

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas’ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: www.talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Qo‘ldashev Sherali Temiraliyevich
O‘z FA Sharqshunoslik instituti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Muydinov Erkin Djamaldinovich
Toshkent Moliya Instituti Andijon fakulteti dekani Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Mamatov Obidxon Vaqqosovich
Namangan davlat universiteti “Milliy g'oya, ma‘naviyat va huquq asoslari” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Zokirov Sanjar Ikromjon o’g’li
Farg’ona politexnika institutining “Intellektual muhandiislik tizimlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Sobira Eshqurbonovna
O‘zMU jurnalistika fakulteti, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Ubaydullayev Farxod Baxtiyarullayevich
Toshkent davlat agrar universiteti "O‘rmonchilik va landshaft dizayn” kafedrasi dotsenti
Umarova Maxliyo Yunusovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Azizov Olimjon Toxirovich
Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasi dotsenti
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti
Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

МОТИВАЦИЯ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ

Кабулова Гузяль Хайдаровна
Учитель географии государственной специализированной
общеобразовательной школы №291
Бектемирского района города Ташкента
https://doi.org/10.5281/zenodo.7491049

Аннотация: В данной статье автором представлены способы мотивации учебной деятельности, о методах и приёмах их формирования и, как мотивация влияет на успехи и достижения учащихся на уроках географии.

Ключевые слова: учебная мотивация, метод, педагогика, инновации, метод проектов, технология проблемного обучения, ситуация успеха.

В Законе Республики Узбекистан «Об Образовании» написано, что образование и воспитание- это два системных процесса, направленные на :

на всестороннее развитие молодого поколения на основе конкретного целевого и социально-исторического опыта, формирование сознания, духовно-нравственных ценностей и мировоззрения;

на предоставление обучающимся глубоких теоретических знаний, умений и практических навыков, а также на формирование общеобразовательных и профессиональных знаний, умений и навыков, развитие способностей.

В системе современного образования остро стоит проблема повышения эффективности обучения. Каждый педагог хочет, чтобы его ученики с интересом и желанием ходили на занятия, учились «хорошо» и «отлично». К сожалению, это происходит не всегда. Часто мы слышим: «он не хочет учиться», «мог бы учиться хорошо, но нет желания». В таких случаях мы сталкиваемся с отсутствием у школьника положительной мотивации к обучению. Формирование мотивации учения - это решение вопросов развития и воспитания личности.

Учебная мотивация—это процесс, который направляет и поддерживает усилия, направленные на выполнение учебной деятельности. Это комплексная система, которая состоит их мотивов, целей, реакций на неудачу и потребностей ученика в получении новых знаний. От мотивации учащихся зависит их успешность, уровень знаний, желание учиться всю жизнь.

Есть следующие способы мотивации, применяемые при **обучении географии:**

Важное средство мотивации учебной деятельности —это личность учителя, его педагогическое мастерство, человеческие **качества,** увлеченность

своим предметом, доброе отношение и понимание интересов своих учеников. Поведение учителя на **уроке,** его речь, настроение, действия, оказывают сильное влияние на учащихся. Ответственное отношение учителя к своему труду, занятия краеведением умение вовлечь школьников в активный учебный труд, эти **качества** личности активно влияют на мотивы изучения **географии школьниками.**

В процессе **обучения,** мотивацией могут быть те же формы организации, что и раньше: **уроки-игры, уроки-конференции,** путешествия, **уроки типа КВН,** инсценировки, **уроки-дискуссии**, экскурсии в природу и на производство, **уроки на местности,** в библиотеке вызывают большой интерес у школьников, активизируют их деятельность. Мотивацией может служить даже необычное название **урока,** как бы его девиз, который позволяет создать особый психологический климат, выйти за рамки отдельных тем учебника и решить познавательную задачу. Например, темы **уроков в 6-х классах**: *«Африка- далекая и близкая!», Амазония- легкие нашей планеты», «Океан - основа жизни на Земле!», «Знакомьтесь, Антарктида!»*, и др.

На успех учебной деятельности большое влияние оказывает и форма организации работы учащихся на **уроке**. Особую роль в развитии мотивов играют коллективные и **групповые формы**. При такой организации в работу включаются даже самые слабые учащиеся. Учитель должен объяснить, показать, намекнуть, подвести к проблеме, **создать ситуацию успеха**, поощрить, дать уверенность, сформировать мотивы учения, закрепить авторитет ученика среди одноклассников. Как учитель **географии**, считаю, что моим ученикам необходимо знать **географическую карту**, чтобы они усваивали знания **географической номенклатуры**, развивали пространственное мышление.

Если учитель говорит: *«Пустыня Сахара»*, то ребенок должен видеть ее положение на карте, почувствовать горячее дуновение знойного ветра, увидеть бескрайнее море песка, или напротив, погрузиться в Марианскую впадину, и сразу же оказаться на одиннадцати километровой глубине, на дне Тихого океана, и нас охватывает вечная темнота, и огромное давление воды.

Географическая карта является для учащихся одним из языков *«международного общения»*. Работая с **географической картой**, учащиеся не только формируют естественно - научную картину мира, но и учатся анализировать, преобразовывать и классифицировать информацию, сравнивать и делать выводы.

На **уроках** работаем по картам атласа, интерактивным картам, собираем карты – пазлы, это позволяет закрепить знания по **географическому положению объектов.**

Для лучшего запоминания использую прием мнемотехники – искусство запоминания. Благодаря этим **урокам** учащиеся с легкостью запоминают очертания стран, регионов, сами могут придумывать, зашифровывать страны в новые образы, которые легко запоминаются. Например: Италия – на сапог, а Скандинавский полуостров- на лежачего тигра и т. д.

Особенно учащимся нравится принимать активное участие на *«вкусных* **уроках***»*. Например, при изучении темы *«***Географические координаты***»*, на фруктах можно показать **географическую долготу**, разрезав апельсин на дольки, а разрезая яблоко кружочками показать **географическую широту.**

На **уроках** в 5-6 классах при изучении темы *«Литосфера»*, на примере куриного яйца, учащиеся изучают и легко запоминают внутреннее строение земли, *(желток – ядро, белок-мантия, скорлупа - земная кора)*.

Изучая горные породы и минералы, на примере многослойного торта, можно показать слои горных пород.

Хотите узнать, ради каких пряностей, великие путешественники совершали свои дальние плаванья в Индию и страны Азии?

Предложите ученикам выполните следующее задание: «Перед вами коробочка со специями (корица, кардамон, лавр, анис, перец, кунжут, т. д, ваша цель разложить специи, назвать их, используя ресурсы интернета, составить краткое описание растений, в какой стране они произрастают, и где применяются».

Чтобы быстрее запомнить название, океанов, их можно зашифровать, используя словосочетание «АИСТ улетел на ЮГ, по первым буквам, учащиеся запоминают Океаны: Атлантический, Индийский, Северный- Ледовитый, Тихий, Южный. Также можно зашифровать крупнейшие реки, используя слово ОВАЛ, Обь, Волга, Амударья, Лена.

Изучая тему *«Свойство вод Мирового океана»*, можно приготовить раствор морской воды четырех океанов. Для этого необходимо взять морскую соль, растворить ее в одном литре воды определенной температуры. Используя данные, с помощью термометра и морской соли, подготовить растворы вод всех океанов.

В Тихом океане t +19, 1 гр, соленость - 34, 9 промилле, в Атлантическом океане –t+16, 9 гр, соленость – 35, 5 промилле, В Северном –Ледовитом океане –t- -1, 7 гр, соленость -32 промилле, Индийском - t +17, 1, соленость 34, 8 промилле.

Вывод: чем выше температура, воды, тем выше соленость, чем выше соленость, тем выше плотность воды. На территории Палестины находится Мертвое море с такой же концентрацией соли 260 промилле.

На водной глади этих водных пространств, можно лежать на воде и читать

газету, так как плотность воды очень высокая. На таких **уроках** учащиеся справляются со всеми заданиями, им интересно узнавать новое. Это позволяет им чувствовать себя **успешными.**

Особое внимание необходимо обращать на разъяснение школьникам практического значения **географических знаний**, их роли в повседневной жизни каждого человека и в хозяйственной деятельности всего населения. Например, знания о землетрясениях и цунами – в какой части мира или своей страны возможны, по какой причине они возникают и как необходимо себя вести при данных природных катаклизмах; знания об обитателях материков и океанов необходимы нередко для безопасных путешествий по планете.

Большой объем **географических** знаний невозможно изложить в школьных учебниках. Поэтому компьютер стал незаменимым помощником учителя. Современный **урок** трудно представить без новых компьютерных технологий. Разнообразие мультимедийных энциклопедий, электронные справочники, звуковые и видеофрагменты позволяют сделать **урок** интересным и доступным для понимания детей. Применение слайд - фильмов на **уроках** обеспечивает наглядность, динамичность, более высокий уровень и объем информации по сравнению с традиционными формами. Создание презентаций – трудоемкий процесс, который требует от учителя знание компьютера, изучения возможностей программ, большого количества времени. Однако современный учитель должен идти в ногу со временем.

В заключении хотелось сказать: в последнее время очень часто говорят о том, что ученик не сосуд, который нужно наполнить, а факел, который нужно зажечь. Но часто на практике мы сталкиваемся с тем, что факелы только тлеют, а сосуды упорно наполняются. Чтобы научить детей думать, открывать, изобретать, учитель должен очень много придумывать, изобретать и открывать. Факелы зажигаются только при условии активной творческой деятельности самого учителя, цель которого вовлечение учеников в совместную деятельность.

Литература:

1. Закон Республики Узбекистан «Об Образовании»

2 . Азаров Ю. П. Радость учить и учиться / Ю. П. Азаров. — М. : «Политиздат». — 1989.

3. Белкин А. С. Ситуация успеха. Как ее создать? / А. С. Белкин. — М. : «Просвещение». — 1991.

4. Горохова Ю. В., Горохова И. В. Повышение мотивации школьников к обучению на уроках географии // Молодой ученый. — 2017.


5. Формирование положительной мотивации к учебной деятельности у школьников на уроках географии // География в школе. — № 7. С. 44.

XO‘LLOVCHI VA XO‘LLAMAYDIGAN SUYUQLIKLAR. TURMUSHDA VA TEXNIKADA KAPILLYAR XODISALAR


Abduxalimova Kamola Bakirjon qizi
Farg‘ona viloyati Bag‘dod tumani prezident ta’lim muassalari agentligi Bag‘dod tuman ixtisoslashtirilgan maktabi fizika fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7491059

Annotatsiya: xo‘llovchi va xo‘llamaydigan suyuqliklar. Turmushda va texnikada kapillyar xodisalar haqida tayyorlangan.
Kalit so‘zlar: xollovchi, suyuqlik, kapillyar xodisalar, arteriyalar.

Ayrim suyuqliklar qattiq jismni xo‘llasa, boshqalari xo‘llamaydi. Buning sababini tushunish uchun ular qanday xosalarga ekanligini ko‘rib chiqish lozim. Suyuqliklar, gazlar singari, ma’lum shaklga ega emas va qanday idishga quyilgan bo‘lsa, o‘sha idishning xajmini egallaydi. Biroq gaz suyuqlik kabi aniq bir xajmga ega emas va u berilgan istalgan xajmni egallaydi, suyuqlik esa to‘laligicha ma’lum xususiy xajmga ega va berilgan katta xajmli idishning ma’lum qisminigina egallaydi. Suyuqliklar sirt qatlamida uning qattiq jism bilan chegarasida murakkab xodisa sodir bo‘ladi. Bunday xolda suyuqliklar molekulalari qattiq jism molekulalari bilan o‘zaro ta’sirlari sezilarli bo‘ladi. Kundalik tajribalarda suv tomchisi stolning toza sirtida yoyilishi, biroq yog‘li stol sirtida yoyilmasligi deyarli sharcha shaklini olishi kuzatiladi. Birinchi xolda suv stol sirtini xo‘llaydi, ikkinchi xolda esa xo‘llamaydi deyiladi. Xo‘llash va xo‘llamaslik xodisalari suyuqlik va qattiq jism orasida o‘zaro ta’sir kuchining nomoyon bo‘lishiga yaqqol misol bo‘la oladi.



a)




b)

Xo‘llash xolida suyuqlik molekulalarining bir biri bilan o‘zaro ta’sir kuchi qattiq jism molekulalarining o‘zaro ta’sir kuchidan kichik. Bu kuch ta’sirida suyuqlik qattiq jism sirti bo‘ylab yoyiladi. Xo‘llamaslik xolida aksincha, suyuqlik molekulalarining bir-biriga tortishishi kuchi qattiq jism molekulalarining o‘zaro ta’sir kuchidan katta, natijada suyuqlik shar shakliga yaqin shaklni oladi.


Xo‘llaydigan suyuqliklarda burchak $\pi/2$ dan kichik

Xo‘llamaudigan suyuqliklarda esa burchak π/2 dan katta bo‘ladi



a) b)

Xo‘llash va xo‘llamaslik xodisalari turmush va texnikada juda katta axmiyatga ega. Agar suv bizning tanamizni xo‘llamaganda edi, dushda cho‘milish befoyda bo‘lar edi. Yaxshi xo‘llanishni, masalan bo‘yashda va artishda, payvandlashda, oqartirish va boshqa texnologik jarayonlarda kuzatiladi. Aksincha, gidroizolyatsion inshoot ko‘rilayotganda suv bilan xo‘llanmaydigan modda zarur bo‘ladi. Bizning xayotimizda suyuqlikning ingichka naycha bo‘ylab ko‘tarilishi katta axamiyatga ega. Bunday naychalarni kapillyar naychalar yoki kapillyarlar (lotincha “kapillya”-soch tolasi degan ma’noni bildiradi) deb ataladi.



Kapilyarlarda suyuqliklar sirti yarim sfera shakliga ega bo‘ladi. F_s sirt tarnglik kuchi kapilyarning ichki aylanasining uzunligi $l = 2\pi R$ ga teng bo‘lib, sirt tarnglik kuchi quydagiga teng bo‘ladi:

$$F = 2\pi R\sigma$$

Bu yerda σ sirt taranglik koeffisiyenti

Suyuqliklarning kapilyar bo‘lab ko‘tarilishi suyuqlikning sirt tarnglik kuchi kapilyarda suyuqlik ustunining balandligiga teng bo‘ladi:

$$2\pi R\sigma = mg$$

Bu yerdan $mg = \rho Vg = \rho\pi R^2 hg$ ekanligidan $2\pi R\sigma = \rho\pi R^2 hg$

$$h = \frac{2\sigma}{\rho Rg}$$

Bu formula xo‘llovchi suyuqliklarda suyuqlikning kapillyarda ko‘tarilish balandligini, xo‘llamaydigan suyuqliklarning esa pasayish chuqurligini ifodalaydi. Demak, kapillyarda suyuqlikning ko‘tarilishi yoki tushish balandligi, uning sirt tarnglik koeffitsientiga to‘g‘ri, suyuqlik zichligi bilan kapillyarning radiusiga teskari proporsional ekan. Kapillyar xodisalar tabiat va texnikada katta rol o‘ynaydi.

Oziqlantiruvchi eritma o‘simliklarning poyasi va tanasi bo‘yicha kapillyar xodisalar bo‘ylab ko‘tariladi: eritma o‘simlik xujayralarining devorlaridan xosil bo‘lgan ingichka kapillyar naychalar orqali ko‘tariladi. Tuproq kapilyarlari bo‘ylab suv chuqurlikdagi qatlamlardan yuqori qatlamlarga ko‘tariladi. Tuproq kapillyarlarining diametrlarining zichlash yo‘li bilan kuchaytirib, tuproq sirtiga, ya’ni bug‘lanish soxasiga oqayotgan suvni kuchaytirish mumkin; bu bilan tuproqning qurishi tezlashadi. Aksincha, tuproq sirtini yumshatib va shu yo‘l bilan tuproq kapilyarlarini buzib, suvni bug‘lanish soxasiga qarab oqishini kamaytirish va tuproqning qo‘rishini sekinlashtirish mumkin. Tuproqdagi suv rejimini tartibga solib turishning agrotexnik tabbirlari – zichlash va boronalash shunga asoslangandir. Bino devorlariga kapillyar kanallari bo‘ylab sizot suv ko‘tariladi; plik kapillyari bo‘ylab moylovchi modda ko‘tariladi; bosma qog‘oz va shu kabilardan foydalanishi xam kapilyarlik xodisasiga asoslangan. Choyni qand bilan ichayotganingizda quydagi xodisaga e’tibor berganmisiz? Agar qandning bir uchi piyoladagi choyga tekizib turilsa, choy qandga shimila boshlaydi. Qandning yuqori qismi choyga tegmasa xam ho‘llanib qoladi. Qand choyni shimishiga sabab kapilyarlik xodisasidir. Butun tana bo`ylab qon tomirlari o`tkazilgan. Tuzilishi bo`yicha ular bir xil emas. Arteriyalar – bu qonni yurakdan tashuvchi tomirlar. Ular zich, elastik devorlarga ega bo`lib, ularning tarkibiga silliq mushaklar kiradi. Qisqarish natijasida yurak arteriyalarga katta bosim ostida qonni chiqaradi. Arteriya devorlarining mustahkamligi va elastikligi uchun u bunday bosimga dosh bera oladi

Katta arteriyalar yurakdan uzoqlashishi bilan tarmoqlanadi. Eng kichik arteriyalar ingichka kapillyarlarga bo`linadi. Ularning bevorlari yassi hujayralar bilan yaxlit bitta qatlamidan tashkil topgan. Qon plazmasida erigan moddalar kapillyar devorlari orqali o`tib hujayralarga borib tushadi. Odam organizmida taxminan 150 mlrd kapilyarlar mavjud bor. Agar barcha kapillyarlarni bitta chiziqqa joylashtirsak, u bilan yer ekvayorini 2, 5 marta aylantiribchiqish mumkin ekan. Qon vena tomirlarida to`planadi va yurakka tomon harakatlanadi.

Xullosa qilib aytadigan bo‘lsak Xo‘llovchi va xo‘llamaydigan suyuqliklar, turmushda va texnikada kapillyar xodisalar inson xayotida tutagan o‘rni va axmiyati juda xam muxim xisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. M. O‘lmasova “Mexanika va molekulyar fizika” Toshkent. “O‘qituvchi”200 4 y.

2. A. V. Pyorishkin, N. A. Rodina “Fizika” 9-sinf. Toshkent. “O‘qituvchi”1984 y.

3. R. Xabibullaev, A. Boybodoev “Fizika” 9-sinf. Toshkent. “G‘ofur G‘ulom” 2019 y.

4. A. N. Remizov “Tibbiy va biologik fizika” Toshkent. Ibn Sino. 1992 y.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA FAOLIYAT YURITAYORGAN BIOLOGIYA FANI O‘QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAHORATI VA UNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Primova Rushana Boxodirovna
Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani
24-maktabning bilogiya fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7491065

Annotatsiya: Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayorgan biologiya fani o‘qituvchisining pedagogik mahorati va uni shakllantirish yo‘llari haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik mahorat, pedagogik faoliyat, o‘qituvchi, ijodiy mehnat, barkamol inson, bilim berish va tarbiyachilik mahorati.

Pedagogik mahorat tug‘ma talant yoki nasldan-naslga o‘tadigan xususiyat emas, balki tinimsiz izlanish, ham ilmiy, ham amaliy shakldagi ijodiy mehnat mahsulidir. Bu ko‘p qirrali pedagogik faoliyat zaminida ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o‘qituvchilar uchun standart, ya’ni bir qolip shaklida qolib ketadigan ish usuli emas, balki u har bir o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi.

Darhaqiqat yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson qilib tarbiyalashda ularning ma’naviyat qirralari: iymon, e’tiqod, mehr, vatanparvarlik, do‘stlik, insonga cheksiz muhabbat, muruvvatlilik, qanoatlilik, sabr-toqatlilik, sahiylik, milliy g‘urur kabi fazilatlarni shakllantirish juda muhimdir. Bu mislsiz tengi yo‘q ishda pedagoglarning, tarbiyachilarning, ta’lim sohasida mas’ul xodimlarning xizmati benihoya kattadir.

Bu vazifalarni amalga oshirishda pedagogik faoliyat va pedagogik mahoratning o‘rni beqiyos bo‘lib, pedagogik mahorat va uning tarkibiy qismlari, o‘qituvchilik faoliyati, shuningdek pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllantirishni taqozo etadi. O‘qituvchining bilim berish va tarbiyachilik mahorati yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayonning ta’sirchanligi va samaradorligini oshiradi.

Ilg‘or o‘qituvchilarning ikki xil qiziqishlari bo‘ladi:

1. O‘z sohasini, ya’ni o‘z predmetini chuqur bilishi va bilimga intilishi. Psixologiya va pedagogika fanining eng yangi yutuqlarini egallash;

2. Bolalar bilan muloqot ehtiyoji.

Bu ikkala qiziqish ham o‘zaro juda yaqindan bog‘liq bo‘lib, agar o‘qituvchi o‘z sohasini bilsa-yu, o‘quvchilarni yoqtirmasa va muloqot ehtiyoji bo‘lmasa, bunday

o‘qituvchining maktabda ishlashi qiyin bo‘ladi.

Shuningdek, o‘qituvchi bolalar va yoshlar psixologiyasini va pedagogikasini yetarli darajada bilishi shart. Demak, o‘qituvchi kasbi uchun zarur bo‘lgan bilim va tajribalardan tashqari, pedagogik vazifa va pedagogik vaziyatni hal etishga urinish mumkin bo‘lgan pedagogik vositalardan samarali foydalana olishi hamda unda pedagogik vazifa va vaziyatni chuqur hal etish uchun har tomonlama mustahkam bilimga ega bo‘lishi talab qilinadi. Ayniqsa, o‘qituvchi o‘zi berayotgan bilimlarni jonli, obrazli qilib berish qobiliyatini chiqur egallagan bo‘lishi kerak.

Pedagogik mahoratning yordamchi tarkibiy qismlari:

Nutq malakalari

Tushunarli ta’sirchan fikr va his-tuyg‘ularni so‘zda aniq ifodalash

Mimika va pantomimika

Ma’noli qarash

Hissiy psixik holat

Kayfiyat yoki istehzoli tabassum

Savodli gapirish

Aniq imo-ishora

Rag‘batlantiruvchi munosabat

Ijodiy jiddiylik.

Shuningdek, o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini, yosh bosqichlarini, oilaviy sharoitlarini, intellektual qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs sifatida rivojlanishlari o‘qituvchi pedagogik mahoratining ajralmas qismlaridan biri hisoblanadi. Demak, pedagog har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltira oluvchi shaxsdir.

Albatta, quruq axborotlar hyech kimni qiziqtirmaydi. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘z darsini qiziqarli o‘tishga, materialni his-tuyg‘u bilan berish uchun ovozidan, yuz qiyofasidan, xatti-harakatlaridan foydalanadi hamda darsning ta’sirchanligini oshirishga harakat qiladi. O‘quvchilarda ijobiy his-tuyg‘u uyg‘otgan axborot mustahkam bo‘ladi. Psixologiya fanida ko‘pincha his-tuyg‘uni, axloqiy, intellektual, mehnat va estetik his-tuyg‘ular farqlanib, ularni chaqiruvchi omillar bo‘yicha turlarga ajratadilar.

O‘quv tarbiya ishlari jarayonida eng yuksak natijalarga erishib faoliyatning yuksak darajada baholanishi va hamma tomondan tan olinishini istamaydigan pedagog topilmasa kerak. Bunga erishishni ana shu xil orzuning ushalishini pedagogik mahorat deymiz. Xo‘sh, biologiya fani o‘qituvchisining pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimadan iborat? Unga qanday erishsa bo‘ladi? Hozirgi zamon pedagogika va psixologiya sohasidagi maktablarda «Pedagogik mahorat» tushunchasi turlicha izohlarga duch kelamiz.

Bu tushunchaning mohiyatini bir muncha to‘laroq. Aniqroq ta’rifini «Pedagogik

ensiklopediya»da berilgan deyish mumkin. Bizningcha, boshqalarga nisbatan bu ta’rif pedagogik mahorat mazmunini va mohiyatini bir muncha to‘g‘ri yoritadi. «Pedagogik mahorat –bu tarbiya va o‘qitishni yuqori darajaga erishishi va uni doimo takomillashtirib borish imkoniyatini ta’minlovchi san’at bo‘lib, o‘quvchiga mehr qo‘ygan va o‘z kasbini sevgan har bir pedagogning qiladigan ishidir.

Bilogiya fani o‘qituvchilar o‘qitish metodlarini tanlashga alohida e’tibor beradilar. O‘quvchilar frontal, differensiyalashgan va yakka tartibdagi faoliyatlarining umumiy jihatlari ko‘proq bo‘lsada, ularni tashkil etish o‘qituvchidan o‘ziga xos ijodiy yondoshishni talab qiladi. O‘quvchilik faoliyati ob’yektning tarkibi va o‘ziga xosligi, uning har bir aniq vaziyatga ijodiy yondoshishini taqozo qiladi. Agar o‘quvchiga butun sinf, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta’sir ko‘rsatilsa, unda tarbiya ham, ijodiy yondoshish ham barbod bo‘ladi.

Ayrim hollarda o‘qishga qiziqtiruvchi metodlarga, boshqa hollarda esa burch va javobgarlikni his etishni rag‘batlantiruvchi metodlarga ko‘proq e’tibor berish tavsiya etiladi. Tajribali o‘qituvchilar o‘tilayotgan mavzuning xalq xo‘jaligi masalalarini hal etishdagi ahamiyatiga oid qiziqarli misollar keltiradilar, didaktik o‘yinlardan, o‘quvchilar faolligini rag‘batlantiruvchi turli usullardan foydalanadilar. Lekin o‘quvchi faoliyatida hamma narsani ravshan va qiziqarli holda tasavvur etish qiyin. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘quvchilarda paydo bo‘ladigan qiyinchiliklarni yengish uchun o‘zida iroda va qat’iylikni ham tarkib topshirishi zarur.

Biologiya fani pedagoglari ma’ruza, seminar, munozara, anjuman, o‘quv sayohati, o‘quvchi-maslahatchilar yordamida mustaqil dars, ko‘rik-tanlov, amaliy mashg‘ulotlar, ekskursiya kabi dars turlaridan foydalanishga alohida e’tibor beradilar.

O‘qituvchining mohirligi yuqorida qayd qilingan noan’anaviy dars turlarini o‘tish texnikasining egallashida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishda ma’ruza darslarining ahamiyati kattadir. Tajribaning ko‘rsatishicha, ma’ruzani boshlashdan oldin bu materialni o‘rganishdan ko‘zlangan aniq maqsadni ta’kidlash lozim. So‘ngra bilimlarni egallash g‘oyasini isbotlash, oqilona harakat usullarini tanlash prinsiplarni ko‘rsatish zarur. Shundan so‘ngina mavzuning mohiyati ochib beriladi.

O‘z ishiga ijodiy yondoshadigan o‘qituvchilar ma’ruza davomida dialog, savol-javob, qaytarish, ziddiyatli vaziyatlar, o‘xshatishlar va boshqa faoliyat turlaridan unumli foydalanadilar.

O‘quvchilarda yangi bilimlarni va qonuniyatlarni kashf etish bilan bog‘liq bulgan aqliy faoliyatni rivojlantirish uchun seminar darslari muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg‘or o‘qituvchilar tajribalarida ta’kidlanganidek, seminar darsda eng qoloq o‘quvchi ham boshqa turdagi darsda uddalay olmaydigan miqdordagi aqliy ish bajarar ekan. Mashg‘ulotlar odatdagidan tashqari noan’anaviy usullarda olib boriladi. Ba’zan u munozara yoki suhbat shaklida bulishi mumkin. Lekin o‘quv materiali aniq

va ishonarli qilib bayon etiladi.

Bilogiya o‘qituvchilari ish tajribasida munozara darslari ham muhim o‘rin egallab kelmoqda. O‘qituvchilarning ta’kidlashlaricha, munozara darslarni o‘tish juda katta mohirlikni talab etadi. Bunda eng avvalo o‘quvchilar fikrlarini taqqoslash va ularning fikrlaridagi qarama-qarshiliklarni aniqlash muhimdir. Lekin darsning bu turini har doim qo‘llash maqsadga muvofiq emas, chunki birinchidan, hamma mavzular ham munozarabop emas, ikkinchidan munozaraga tayyorgarlik ko‘rish o‘qituvchidan juda ko‘p vaqt talab qiladi.

Tabiat qo‘ynida yoki ishlab chiqarish sharoitida o‘tiladigan darslar ham o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishlarining ortishida muhim rol o‘ynaydi.

Muammoli o‘qitishda bilogiya o‘qituvchilarning tajribasiz o‘qituvchidan tubdan farq qiluvchi tomonlari quyidagilardan iborat: tajribasi bo‘lmagan o‘qituvchilar darsda o‘quvchilarga asosan bilimlarni tayyor holda beradilar. Bunday o‘qituvchilar darsda ko‘proq o‘quv materialini o‘quvchiga tushuntirishga yoki darslikdan o‘quvchilarni yod oldirishga harakat qiladilar. Ba’zi o‘qituvchilar esa "hammabop" kombinasiyalashgan darsga o‘ta berilib ketadilar va bir xil andoza bo‘yicha ishlaydilar. Albatta, bu o‘qitishdagi muammoni izlab topish muammoli vaziyatlar yaratishdan oson. Ba’zi o‘qituvchilar esa rivojlantiruvchi ta’lim mohiyatini to‘la-to‘kis tushunib yeta olmaydilar. Ular yetarli daraja didaktik va umumpedagogik ma’lumotlarga ega emaslar. Natijada muammoli o‘qitishni joriy etishda muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar.

Xulosa shuki, biologiya fani o‘qituvchilari bilimlarni o‘zlashtirishning barcha bosqichlarida muammoli vaziyat yaratishga erishadilar. Ular o‘quvchilarning tabiat qonunlarni, son-sanoqsiz raqamlar va ismlarni, yuzlab qoida va ta’riflarni soxta yod olishlarini, ularning xotiralarini hayotda kerak bo‘lmaydigan narsalar bilan to‘ldirib band qilishini qoralaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagogika jurnali, Toshkent 2019 y
2. Biologiya fani o‘qituvchisining pedagogik mahorat. Ma’ruzalar matni.
3. WWW. arxiv. uz
4. www. Ziyonet. com

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING NUTQIY KO‘NIKMALARI

Xallakova Aziza
Sirdaryo viloyati Oqoltin tuman 10-sonli DMTT tarbiyachisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7491075

Annotatsiya: Maqolada ta’limning dastlabki bosqichi maktabgacha ta’limda tarbiyalanuvchilarning nutqiy jarayonga kirishish omillari, muammo va yechimlar yuzasidan mulohazalar bildirildi.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya sohasidagi islohatlar, ta’lim tizimi, ta’limning ilk bosqichi, nutqiy muloqot, nutqiy bilim, ko‘nikma va malaka.

Yurtimizda ta’lim-tarbiya sohasidagi islohatlarning ko‘lami, mazmun va maqsadlari takomillashib bormoqda. O‘zining iqtisodiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy jihatdan erkin va taraqqiy etgan bo‘lishini istagan davlat, avvalo, bu tizimga katta ahamiyat qaratishi lozim. Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarning asl mohiyati o‘sib kelayotgan yosh avlodning milliy mafkuramiz g‘oyalarini targ‘ib etuvchi, ajdodlar merosini asrab avaylash bilan bir qatorda ularda ilgari surilgan fikr va ta’limotlarni joriy etuvchi, mustaqil O‘zbekistonning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarini anglagan holda ularning amaliyotchisi sifatida harakat qiluvchi shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Bu kabi oliyjanob maqsad va vazifalarning amalga oshishida ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan biz o‘qituvchilarning xizmati katta. Ta’limning ilk bosqichidayoq o‘quvchi shaxsining individual xususiyatlari kashf etiladi va unda bilim, salohiyat, idrok, mustahkam xotira, ijodiy yondashuv, erkin fikrlash elementlari tarkib topadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotiga qabul qilingan tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o‘rtasida mashg‘ulotning birinchi kunidayoq nutqiy muloqot jarayoni boshlanadi. Bu jarayonda dastlab tarbiyachi faol shaxs bo‘lib mashg‘ulotning katta qismida o‘zi nutq so‘zlaydi, bolaga rejada belgilangan bilimlarni tezroq o‘rgatishga intiladi. Masalan, “Alifbe” fanidan ma’lum sana uchun belgilangan harfning talaffuzi va yozilishini o‘rgatishni maqsad qilib belgilab oladi va belgilangan maqsaddan aslo og‘ishmaydi. Mashg‘ulot asosan, tarbiyalanuvchi shaxsini harfning yozilishini o‘rgatishga safarbar qilish bilan o‘tadi. Vaholangki, ta’limning ilk bosqichidayoq suhbatga tortilmagan, faol nutqiy muloqotga kirishmay o‘rgangan bola ta’limning keyingi bosqichlarida ham umuman, maktabda, dars jarayonida mustaqil, erkin, ortiqcha his-hayajonsiz nutqiy faoliyatni amalga oshira olmaydi. Shu boisdan bola maktabgacha ta’lim tashkilotiga tashrifining ilk bosqichidayoq tarbiyachi tomonidan faol nutqiy jarayonga tortilishi kerak. Masalan, mashg‘ulotning birinchi kunlaridayoq bo‘lajak

o‘quvchi ijodiy va erkin nutq hosil qilishiga erishish uchun unga quyidagi savollarni berish mumkin.

-Sen hozir nimani xohlayapsan?

-Kelajakda kim bo‘lishni istaysan?

-Uyingdagi yaxshi ko‘rgan hayvonlaring haqida gapirib ber?

-Eng yaxshi ko‘rgan o‘yinchoqlaring haqida so‘zlab bera olasanmi?

Bu kabi savollar tarbiyalanuvchining nutqiy muloqotga kirishish qiyinchiliklarini bartaraf etadi, shaxsini erkin, ijodiy og‘zaki nutq jarayoniga tayyorlaydi, o‘zi ko‘rgan, bilgan, his qilgan hodisalari haqida ilhomlanib so‘zlashga rag‘batlantiradi. Bola bu jarayonda mashg‘ulotning nofaol, harakatsiz ob’yektidan faol, ishlovchi sub’yektga aylanadi. Kichik shaxsda nutqiy bilimning ko‘nikma va malakaga aylanishi bilan bir qatorda, berilgan savol yuzasidan mushohada yuritish, mavjud fikrlarni analiz va sintez qilish xususisyatlari takomillashadi. Omma oldida o‘zini to‘g‘ri, erkin tutish, jamoatchilik orasida mustaqil, izchil, individual, ravon nutq hosil qilish imkoniyatiga shart-sharoit yaratiladi. O‘zidagi mavjud bilimlardan foydalanish, nazariyani amaliyot bilan bog‘lash, darsning integratsiyalashuviga erishiladi. Aksincha, ta’limning ilk bosqichida tarbiyalanuvchiga o‘zi tushunmagan, idrok etishga qiynalgan, hali anglab ulgurmagan fan sohalarining ba’zi juz’iy, elementar savollariga ham zo‘rma-zo‘rakilik bilan javob talab qilish tarbiyalanuvchi shaxsida aqliy va nutqiy qiyinchilik tug‘diradi. Bu kabi savollarga quyidagilarni kirish mumkin:

-O‘zbekiston qachon mustaqillikkka erishgan?

-O‘zbek alifbosida nechta unli va undosh harflar mavjud?

- Respublikamiz nechta viloyatdan tashkil topgan?

-(Ma’lum bir harfni ko‘rsatib) Mana shu harfdan boshlanuvchi so‘z ayt?

Yuqoridagi savollarni bilish tarbiyalanuvchi uchun o‘ta zarur bo‘lishi shart emas. Ularni bilib olish bolaning xotira mashqi uchun xizmat qilishi mumkin, lekin mustaqil, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarining malakaga aylanishida to‘sqinlik qiladi. Bu kabi savollar ta’sirida qolgan tarbiyalanuvchi nutqiy muloqotdan chetda qoladi. Savolning javobi haqida bilmagan, eshitmagan, yoki xotirasidan ko‘tarilgan bola shaxsida uyalish, izza bo‘lish, tushkunlikka tushish natijasida hech qanday nutqni amalga oshira olmaslik kabi agressivlik yuzaga keladi. Salbiy kayfiyatga tushgan tarbiyalanuvchi nafaqat, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, guruhdoshlari, do‘stlari bilan, balki, o‘z oilasi bilan ham nutqiy muloqotga kirishishni istamaydi. Shu sababdan ta’limning dastlabki bosqichidayoq bolada og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, faol nutqiy jarayon uchun imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish dolzarb masaladir. Yaratilgan imkoniyat va shart-sharoit bola shaxsida o‘z-o‘zidan qoniqish hosil qilish, individual dunyoqarash, shaxsiy xarakter va xususiyatlarining tarkib topishi, salohiyat va qobilyatning kashf etilishida muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. E. Begmatov, A. Boboyeva, M. Asomiddinova, B. Umurqulov, O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. -Toshkent 1998.
2. Siddiq Mo‘min. So‘zlashish san’ati, Farg‘ona 1997.
3. www. ziyonet. com

MULTIMEDIALI WEB ILOVA ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI

Bayramova Shohida Dilshodbek qiz
TATU Urganch filali 4-bosqich talabasi
shohidaubtuit@gmail. com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7491079

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada multimedia web ilovalarini yaratish, texnologiyasini o‘rganish ularni qanday yaratilishini ifodalovchi ssenariy ishlab chiqish haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Bundan kelib chiqib, har bir multimedia web ilovasi turli tarkibiy qismlar tashkil topgan. Multimediali web ilova interaktiv elementlarga ega sayt hisoblanadi, ular foydalanuvchilarga o‘zaro muloqot qilishiga imkon beradi. Maqolada multimediali web ilova tarkibi haqida qisqacha tariflar va sayt yaratish haqida ma’lumot berilgan. Saytda html, css, javascript, phpMyadmin dasturlash tillaridan foydalanib elektron darslik yaratamiz, bu sayt o‘quvchilarni masofadan turib ham dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirib olishlariga yordam beradi. Saytda audio, video, rasmlar, o‘quv qo‘llanmalardan foydalanamiz.

Kalit so‘zlar: Multimedia, animatsiya, taqdimot, ilova yaratish, o‘yinlar, tasvir, matn bloki, multimediali dastur, web sayt, dasturiy ta’minot. chiziqli multimedia, promrolik intro rolik.

Multimedia ilovalari tarkibini quyidagi qismlarga bo‘lish mumkin. Yaratilayotgan multimedia ilovasi uchun mavzu tanlash, ish maydonini belgilash (masshtab va fon) kadrlar, qatlamlardan foydalanish, turli shakllar simvollarni yaratish, dasturlash tilida o‘zgaruvchilar kiritish va skriptlar yozish, tovushli fayllar bilan ishlash, matn qo‘shish, effektlar yaratish, rasmlardan foydalanish va import qilish, kutubxonadagi tayyor komponentlardan foydalanish, navigatsiyani yaratish, matn razmetkasi tillari va skriptlash tillaridan foydalanish.

O‘z navbatida multimedia ilovalarini quyidagi turosti turlarga bo‘lish mumkin.

Multimedia ilovalarining turosti turlarining asosiy tushunchalari. Taqdimot:

•Chiziqli taqdimot-murakkab grafika, video qo‘yilma, ovoz jo‘rligidagi va navigatsiya tizimiga ega bo‘lmagan dinamik ro‘lik.

•Interfaol taqdimot-iyerarxik tamoyillar bo‘yicha to‘zilmaga keltirilgan va maxsus foydalanuvchi interfeysi orqali boshqariladigan multimediali komponentlar to‘plami.

Animatsiya:

•Kadrlar animatsiyasi-tasvirlar harakati tassurotini beradigan suratlarning kadrlar bo‘yicha almashishi.

•Dasturiy animatsiya –dasturlangan amallar ketma ketligi yordamida tasvirlar almashadigan animatsiya (ya’ni algoritm va o‘zgaruvchilar yordamida). Asosiy ob’yektlarni chizish qo‘lda amalga oshiriladi yoki biror bir kolleksiya yoxud galereyadan import qilib olinadi, shundan keyingina unda qaysidir dasturlash tili imkoniyatlari ishga solinadi.

O‘yinlar:

•Ko‘ngil ochuvchi o‘yinlar –foydalanuvchiga bo‘sh vaqtini o‘tkazishga imkon beradigan dasturlar .

•O‘rgatuvchi o‘yinlar –taqdim etilgan yengil o‘yin shaklida foydalanuvchiga u yoki bu soha bo‘yicha o‘z malaka va ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradigan dasturlar.

Video o‘qish qurilmalari:

•Film kadrlari harakatini shakllantirish harakat tassurotini uyg‘otuvchi rasmlar, kadrlar ketma ketligini, tasvirlarini tayyorlash va joylashtirish .

•Videotasvirlar oqimini o‘qish qurilmasi videooqim formatlari avi, mpeg, v. b. ni o‘z ichiga olgan o‘qish qurilmasini shakllantirish, shundan keyingina ushbu oqimni boshqarish imkoniyati tug‘iladi (masalan, videofaylni ishga tushirish pauza, video boshiga tez o‘tish kabi buyuruqlarni ishlatish).

Multimedia –galereyalar:

- Tasvirlarning kadrlarda almashishi –tasvirlarning belgilangan vaqt oralig‘ida almashish tartibi.
- Panorama –katta ochiq maydonni erkin tamosha qilishga imkon beruvchi keng va kata plandagi manzara.
- Interfaol galereya –foydalanuvchiga boshqarish imkonini beradigan galereya (tasvirlar bo‘yicha harakat).

Tovush o‘qish qurilmalari:

- Bitta ovozli fayl o‘qish qurilmasi –wav, mp3, va boshqa formatdagi ovozli faylni multimedia ilovaga qo‘shish va uni qaytadan eshitish.
- Turli ovozli fayllarni o‘qish qurilmasiga o‘xshash, lekn bajarish ketma ketligini o‘zgartirish imkoniyati qo‘shilgan holda bajariladi.
- Virtual musiqa instrumentlari –haqiqiy musiqa instrumentlari imitatsiyasi.

Web uchun ilovalar:

- Bannerlar-internetdagi reklama xarakteridagi tasvir yoki matn bloki. U reklama beruvchining veb saytiga yoki maxsulot yoxud xizmat turi atroflicha bayon qilingan sahifalarga giper murojaatdan iborat. Bannerlar tashrifchilarni jalb etish uchun, imidjni shakllantirish yoki shu resursni siljitish uchun turli internet resurslarda joylashtiriladi.
- Ma’lumot uzatish ilovalari masalan mehmonlar kitobi.

Multimediali mahsulot yaratish uchun ko‘plab texnik instrumentlar mavjud.

Yaratuvchi gipermatn sahifalarini yaratishda ishlatiladigan dasturni tanlab olishi kerak. To‘liq funksional multimedia dasturlarini yaratishga imkon beruvchi bir qator kuchli multimedia yaratish vositalari mavjud. Macromedia Director, Macromedia Flash yoki Authoware Professional kabi paketlar yuqori darajadagi professonal va qimmat vositalar hisoblanadi, shu bilan birga FrontPage, mPower 4. 0, HyperStudio 4. 0 va Web Workshop Pro ularning oddiyroq va arzonroq analoglari hisoblanadi. PowerPoint va matn muharrirlari (masalan, Word) kabilardan ham chiziqli va chiziqsiz multimediali resurslar yaratishda foydalanish mumkin. Borland Delphi ham multimediali ilovalar ishlab chiqish vositasi hisoblanadi. Sanab o‘tilgan vositalar oson o‘qish va tushunish mumkin bo‘lgan to‘liq hujjatlar bilan ta'minlangan. Albatta, yana ko‘plab boshqa ishlab chiqish vositalari borki, sanalganlar o‘rniga ulardan foydalanib ham bir xil natijaga erishish mumkin.

Hozirgi kunda multimedia ilovalari yaratish texnologiyalarini o‘rgatuvchi avtomatlashtirilgan tizimlar juda kam, ularni topishning iloji ham yo‘q. Ushbu mavzuda darslar, kitoblar va maqolalar to‘plamiga ega bo‘lgan Internet tarmog‘I sahifalari ham shunday tizimlarga o‘xshaydi. Bunday saytlarning asosiy qismi “Multimedia elementlari yaratish uchun flash darslari” yoki Macromedia Directorda multimedia yaratish” mavzulariga yo‘naltirilgan.

Multimedia taqdimoti turlari interfaol multimedia taqdimoti –iyerarxik tamoyil asosida tizimlangan va maxsus foydalanuvchi interfeysi orqali boshqariladigan shartmultimedia komponentlari majmui hisoblanadi.

Foydalanish maqsadidan kelib chiqib, Interfaol taqdimotlar shartli ravishda quyidagi turlarga bo‘linadi:

- korparativ multimediali taqdimot;
- multimediali katalog;
- mahsulot taqdimoti;
- o‘rgatuvchi yoki test dasturi;
- erkin foydalanishga ruxsat berilgan kompyuterlar uchun multimedia qobig‘i;
- elektron nashr yoki multimediali kitob.

Chiziqli multimedia taqdimoti –murakkab grafika, videoqo‘yilma, ovoz jo‘rligi taminlangan va navigatsiya tizimiga ega bo‘lmagan harakatli rolik. Chiziqli taqdimotlar mo‘jallanishiga ko‘ra shartli ravishda quyidagi shakllarga bo‘linadi:

- Stend shaklidagi multimedia taqdimoti;
- Elektron doklad yoki jo‘rlikdagi taqdimoti;
- Sales-taqdimot;
- Promo rolik;
- Intro rolik;

Ekran himoya lavhalari (screen savers).

Shakillantirilgan ssenariylar bilan multimedia taqdimotlarida ularni boshqarish bo‘yicha foydalanuvchi imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. ”ScenePro2” tizimi yordamida taqdimotga uyidagi funksional imkoniyatlar joriy etilmoqda:

1. multimedia taqdimotining daraxt shaklidagi tuzilmasini shakllantirish;
2. ssenariylarni shakllantirish-daraxtning har bir bosqichi uchun taqdimotning mazmuniy qismlarni ko‘rsatish ketma ketligini tanlash;
3. namoyish etish uchun tayyor ssenariylardan foydalanish;
4. ovoz jo‘rliklarini alohida boshqarish .

Shakllantiriladigan ssenariylar bilan multimedia taqdimotlari o‘z ichiga interfaol va chiziqli multimedia ilovalari imkoniyatlarini birlashtirishi mumkin.

Multimedia ilovalarini ishlab chiqish bir necha bosqichda amalga oshiriladi ulardan asosiylari quyidagilar: rejalashtirish, elementlarni ishlab chiqish, dasturiy ta’minot, tekshirish, e’lon qilish, reklama, kuzatuv.

Ushbu bosqichlarda bajariladigan ishlarni ko‘rib chiqamiz.

Rejalashtirish.

Rejalashtirish bosqichida quyidagi savollarga javob topilishi kerak:

1. Multimedia ilovasi nimaga mo‘jallangan?
2. Multimedia ilovasi qaysi auditoriyaga yo‘naltirilgan?
3. Multimedia ilovasiga qanday ma’lumot joylashtiriladi?

Elementlarni ishlab chiqish.

Ushbu bosqichda multimedia ilovasini dasturiy mahsulot sifatida amalga oshirish ishlari bajariladi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: navigatsiya tizimini ishlab chiqish, taqdimot uchun WEB sayt yoki slaydlarning dizaynini ishlab chiqish, sahifalarni to‘ldirish uchun matn va ko‘rgazmali materiallarni tayyorlash (jadvallar, grafiklar, rasmlar va boshqalar).

Dasturiy ta’minot.

Ushbu bosqich multimedia ilovasi sahifalarini yaratishni o‘z ichiga oladi.

Tekshirish.

Multimedia ilovasini yaratishning asosiy bosqichlaridan biri uni tekshirish hisoblanadi. Tekshirish jarayonida multimedia ilovasining to‘g‘ri ishlashi tekshiriladi, jumladan:gipermurojaatlarning to‘g‘ri ishlashi, matn va ko‘rgazmali materiallarda xatolarning mavjud emasligi, multimedia ilovasi sahifalari bo‘ylab navigatsiyaning qulayligi, pochta va boshqa shakllarning to‘g‘ri ishlashi(WEB-sayt uchun), grafik fayllarni yuklashning to‘g‘riligi (WEB-sayt uchun), saytning turli brauzerlarda to‘g‘ri ishlashi (WEB sayt uchun).

Multimediali pedagogik master shablon nashr qilish tekshirish bosqichi tamomlagandan keyin WEB-sayt provayder serverga joylashtirilib, internetda nashr qilinadi va yana qaytadan tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Multimedia ilovasi reklamasi WEB-jamiyat yangi e’lon qilingan multimedia

ilovasi haqida bilishi uchun sayt adresi va veb saytga joylashtirilgan materiallar haqida annotatsiya orqali xabardor qilish kerak. Buning uchun quyidagi imkoniyatlardan foydalaniladi: veb sayt manzilini xatga, tashrif qog‘oziga, broshyuralarga, byullenten, bukletlarga, maxsus kompyuter nashrlariga, internet resurslarining “Sariq sahifalar” sonlariga va boshqa nashrlariga kiritish.

Mashhur izlash saytlarida veb saytni ro‘yhatdan o‘tkazish, veb saytlarda ishorat(ssilka)joylashtirish, veb sayt reklamasi uchun bannerlardan foydalanish. Kuzatib borish (WEB-sayt uchun).

Web –saytga murojaatlar uning nashr etilishi va reklamasidan so‘ng sezilarli darajada unga joylashtirilgan ma’lumotlarning foydaliligi, yangiligi va aktualligi bilan belgilanadi. Web –sayt imidjini saqlab turish uchun undagi ma’lumotlarni doimiy yangilab borish tavsiya etiladi, aks xolda saytning o‘rgimchak to‘rida necha yillardan buyon yangilanmagan saytlar ham mavjudligini ta’kidlaymiz.

Texnologik bosqichlar mazmuni tahlili shuni ko‘rsatadiki, bir qator ishlar va asosiysi bu ishlarning natijasi pedagogik multimedia master-shabloni namoyish shakliga bog‘liq emas. Buni quyidagi chizma ko‘rgazmali ravishda namoyon qiladi. Veb –saytlar uchun maxsus bo‘lgan “Publikatsiya”, “Reklama”, “kuzatib boorish” bosqichlari yo‘q.

Web–saytning yaratilishi murakkab muammo bo‘lgani sababli, uni kompleks shaklda qurib chiqish kerak. Web–sayt ishlab chiqilguncha yechilishi zarur bo‘lgan asosiy savollar quyidagilardan iborat va ularga javob topishga harakat qilamiz. Shunday qilib, web–saytni joylashtirish, quvvatlash va uning harakatiga tegishli savollar bilan web–sayt tadqiq qilinguncha tanishib chiqmoq zarur.

Web–saytning auditoriyasi. Internetdagi zaruriy va maqsadli guruh etarli miqdordami? Uning parametrlari (jinsi, yoshi, ma’lumoti, qiziqishi va b. q) qanday? Kim uchun bu ishni qilyapsiz va odamlar internetdan foydalanadimi? Har bir Web–sayt asosan tashrif buyuruvchilar uchun yaratiladi. Hammaga ma’lumki, hozirchalik O‘zbekistonda internetdan aktiv foydalanuvchilar soni yuqori emas. Bundan tashqari, ko‘plab foydalanuvchilar respublika tashqarisidagi axborotlarni qidirish maqsadida internetga kirish uchun haq to‘laydilar. Shunday qilib, eng ko‘p tashrif buyuruvchi Web–saytlarga rus–zabon va ingliz–zabon auditoriyalar, ya’ni eksport–import operatsiyalari, turizm transport bilan shug‘ullanadigan kompaniyalar kiradi. Veb saytning auditoriyasi kengaytirish maqsadida turli xil interaktiv xizmatlarni joriy etib bormoqda. Bu shuni ko`rsatadiki veb saytning auditoriyasi qanchalik yuqori bo‘lsa, moliyaviy mablag‘ topish ham shunchalik yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ladi. Lekin, keyingi paytda O‘zbekiston auditoriyalariga yo‘naltirilgan ko‘plab Web–saytlar paydo bo‘lmoqda. Tabiiyki, ulardan faqatgina internetda real holatdagi auditoriyalarga mo‘ljallanganlari tashrif buyuradilar.

Web saytda o‘quvchilarni qiziqtirish maqsadida turli yorqin rasmlardan va

qiziqarli videolardan foydalanamiz ularni oson o‘zlashtirishi uchun mavzuga doir o‘yinlar, testlar, metodlar, jadvallardan ham foydalanamiz.

Web–saytni joylashtirish (xosting). Xostingni tanlashda internet provayder imkoniyatini, ya’ni kanalning o‘tkazish qobiliyatini inobatga olish kerak bo‘ladi. Bir vaqtda qancha tashrif buyuruvchilar web–saytga kira olishi mana shu ko‘rsatkichga bog‘liq bo‘ladi. Provayder kanali turli xil mamlakat va mintaqadagi foydalanuvchilarga bir xil yaxshi va qulay bo‘lishi kerak. Xosting sifatiga ta’sir etuvchi boshqa parametr–bu web–server unumdorligi hisoblanadi. Xosting vakolati sanalgan kompaniya bilan saytning ommaviyligi (tashrif buyuruvchilar soni) oshgan taqdirda kanalning o‘tkazish qobiliyati va web–server unumdorligini mos ravishda oshirish to‘g‘risida kelishib olish kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Multimediali web ilovasi. Maqola 2019 y
2. www.ziyonet.com
3. Web–saytning auditoriyasi. Qo‘llanma. 2021 y

KIMYO FANINI O‘QITISHDA YANGI USUL METODLARDAN FOYDALANISH

Qulmuradova Zamira Baxtiyorovna
Toshkent viloyati Angren shahar 6 maktab kimyo o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7491085

Annotatsiya: ushbu maqola kimyo fanini o‘qitishda yangi usul metodlardan foydalanish haqida yozilgan. Bu usullar bilan o‘quvchilar fanni yaxshi tushunadi va o‘rganib boradi.

Kalit so‘zlar: metod, tushuncha, “Kimyogar koptokch” “Baliq skeleti”, “Bilimdon cho‘qqisi”.

Bugungi kunda ta’lim tizimiga e’tibor yanada kuchaytirilmoqda. Muhtaram yurtboshimiz tomonidan bir qator fanlarni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Muhtaram yutrboshimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zlarining “1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni” bayrami munosabati bilan o‘tkazilgan tantanali marosimdagi nutqida shunday degan edilar. “Matematika hamda kimyo-biologiya fanlarini rivojlantirish bo‘yicha qarorlar qabul qildik. Ularga asosan har bir tuman va shaharlarda ana shu fanlarga ixtisoslashgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Shu yilning o‘zida kimyo-biologiya yo‘nalishida 27 ta maktab tashkil etilgani bu ishlarning boshlanishidir”.

Shunday ekan biz kimyo fani o‘qituvchilari o‘quvchilarga fanning sir asrorlarini o‘zimizning mahoratimiz, iqtidorimizni ishga solib, yetkazib bera olishimiz kerak.

Kimyo fani murakkab, shu bilan birga juda qiziq fan. Mavzularni tushuntirishda o‘tiladigan mavzuning mazmuniga, o‘quvchilarning yoshi, psixologiyasidan kelib chiqib, ularga mos ta’lim metodlari tanlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan: 7-sinf o‘quvhilari qiziquvchan, o‘yinqaroq bo‘ladi. Ularga mavzularni umumiy takrorlashda yoki o‘quvchilarni fikrini fanga qaratishda **“Kimyogar koptokcha”** metodidan foydalanish mumkin.

Ta’rif: Bunda o‘qituvchi koptokni ixtiyoriy bir o‘quvchiga uloqtiradi. o‘quvchi esa 1 ta kimyoviy tushuncha aytib o‘qituvchiga qaytaradi. Masalan: atom.

O‘qituvchi iloji boricha fikrini jamlay olmagan o‘quvchilarni fanga qaratishga harakat qilishi kerak. Bunda o‘quvchilar quyidagicha tushunchalarni sanashlari mumkin. Masalan: element, modda, jism, elektron, proton, allotropiya, sublimatlanish, vodorod, yod va hokazo. Bunda bir o‘quvchi tomonidan aytilgan tushunchalar takrorlanmasligi kerak. Takroriy aytgan o‘quvchi mag‘lub hisoblanadi.

Natijaviyligi: bu metod orqali o‘quvchilar bilimini mustahkamlash, fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, o‘quvchilarni fikrini kimyoga qaratishga yordam beradi.

“Sehrli siyohlar” qiziqarli tajribaviy metodi.

Ta’rif: Bunda o‘qituvchi mavzu nomini yoki biron-bir tushunchani oq qog‘ozga fenolftalein eritmasidan foydalanib yoziladi. Yozuv bir oz ochiq havoda quritiladi. Qog‘ozda hech qanday yozuv ko‘rinmaydi. Chunki fenolftalein eritmasi rangsiz. Qog‘ozni yozuv taxtasiga ilib qo‘yish mumkin. Qog‘ozga “Mavzu: Asoslarning olinishi va ishlatilishi” deb yozish mumkin. Suv purkagich idishga natriy gidroksid eritmasi avvaldan quyib qo‘yiladi. U ham rangsiz. Eritmani qog‘ozga purkaladi. Oppoq qog‘ozda to‘q pushti rangli yozuv “Mavzu: Asoslarning olinishi va xossalari” paydo bo‘ladi.

Qo‘llanilishi: Bu metoddan barcha sinflarga kimyo darsini o‘tishda, 7-, 8-sinflarda asoslarga oid mavzularni o‘tishda, indikatorlar haqida ma’lumot berilganda foydalanish mumkin.

Natijaviyligi: Bu metoddan foydalanib o‘quvchilarni hayratini, fanga bo‘lgan qiziqishini, intilishini oshirish, kimyoni mo‘jizakor ekanini ko‘rsatish, o‘quvchilar fikrini darsga qarata olish, mavzuga doir amaliy bilim bera olish mumkin. Bu esa mavzuni to‘la tushunishlariga yordam beradi.

“Baliq skeleti” metodi.

Ta’rif: Oq qog‘ozga baliq skeleti maketi chiziladi. Uning yuqori qismiga mavzuga oid ma’lumotlar yozilib, uning pastiga sababi, izohi yoziladi. Masalan: yuqorida – alkenlar birikish reaksiyasiga kirishadi, pastda esa uning sababi-qo‘shbog‘i borligi uchun 2-suyagi yuqori qismiga-asetilen payvandlashda ishlatiladi, pastiga – yuqori miqdorda issiqlik chiqadi va hokazo.

Qo‘llanilishi: 10-sinflarda alkenlar, alkanlar mavzularini o‘tishda bu metoddan foydalanishlari mumkin.

Natijaviyligi: Bu metoddan foydalanib bolani mavzuga doir bilimlarini tekshirish, uni atrofdagi voqealarni sababini topishga o‘rgatish mumkin. Bu esa o‘quvchilarni mavzularni to‘la tushunishlariga yordam beradi. Dunyoqarashini, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

“Bilimdon cho‘qqisi” metodi.

Ta’rif: Bunda katta farmat qog‘ozga tepaga qarab ko‘tarilib borgan tog‘ cho‘qqisi surati chiziladi. Tog‘lar surati ichiga yer qobig‘ida tarqalgan elementlar, osmon qismiga esa havoda tarqalgan gazlar yoziladi. Dars davomida savollarga javob bergan o‘quvchilar yelimli qog‘ozlarga ismlari yozilib, tog‘ning eng pastki qismiga bir qator qilib yelimlanadi. Ikkinchi bor to‘g‘ri javob bergan o‘quvchi bir pog‘ona ko‘tariladi. Shu tarzda dars davomida cho‘qqiga birinchi bo‘lib, chiqqan o‘quvchi bugunning eng faol o‘quvchisi deb topilib, rag‘bantlantiriladi.

Qo‘llanilishi: Bu metoddan barcha sinf o‘quvchilariga darslar davomida darsdagi faolligini baholash va rag‘bantlantirishda yoki mavzularni mustahkamlashda, guruhli musobaqalar o‘tkazganda foydalanish mumkin.

Natijaviyligi: Metodning afzalligi shundaki, bunda o‘quvchining faolligi sinfdagi barchaga yaqqol ko‘rinib turadi. Cho‘qqiga bo‘lgan intilish esa o‘quvchilarning darsdagi faolligini taminlab beradi.

Men bu metod va usullardan darslarim davomida foydalanib boraman. Metodlarning barchasi o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirishga, bu esa ta’lim sifatini oshishiga hizmat qiladi. Sizga ham bu metodlardan foydalanishni tavsiya etaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “1-oktabr–O‘qituvchi va murabbiylar kuni “bayramidagi nutqi.

2. I. R. Asqarov, N. X. To‘xtaboyev, K. G‘. G‘opirov - Kimyo 7-sinf darsligi. : Toshkent-2013.

3. I. R. Asqarov, K. G. G‘opirov, N. X. To‘xtaboyev. -:Kimyo 9-sinf darsligi Toshkent-2019.

4. A. Mutalibov, I. Murodov, S. Masharipov, H. Ikromova. -Organik kimyo 10-sinf darsligi Toshkent-2017.

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA NOAN'ANAVIY USULLARDAN FOYDALANIB O'QUV DARSINI TASHKIL QILISH

Sayidova Shaxlo Egamberganovna
Bektemir tumanidagi 291-maktab o'zbek tili fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7491089

Annotatsiya: Ma’lumki, Tilning o‘ziga xos nafosatini o‘quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda o‘zbek tili ta’limida an’anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Ushbu maqolada o‘zbek tilini o‘qitishda noan’anaviy usullardan foydalanib darsni tashkil etish haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, zamonaviy metodlar, savodxonlik, imlo qoidalari, til grammatikasi va h. k.

Tajribadan ma’lumki, o‘quvchilarning aksariyati o‘zbek tili darslarida imlo qoidalarini puxta o‘zlashtirmaydilar. So‘larni qanday aytilsa, shunday yozishga odatlanib qoladilar. Shuningdek, o‘quvchilarning nutqidagi dialektal xatoliklar ularning savodxonligiga soya solidi. Bu esa bora-bora ulardagi savodxonlik darajasining qotib qolishiga, so‘zlarning muntazam ravishda xato yozilishiga sabab bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilarning og‘zaki nutqida baho, bahor, bilan, yulduz, teatr, savol, orden, obod, marvarid, shanba, mas’ul, daryo kabi so‘zlarni boho, bohor, blan, yuldiz, tiatr, sovol, ordin, obot, marvarit, shamba, ma’sul, dayra tarzida talaffuz qilish va shu asosda xato yozish amaliyotda uchraydi. Bu narsa ularning unli va undosh harflar imlosi bo‘yicha o‘zbek tili darslarida yetarlicha bilim va malakaga ega bo‘lganliklarini ko‘rsatadi. Bu kabi xatoliklarning oldini olish maqsadida “O‘zbek tilining imlo qoidalari”dagi “Ayrim unlilar va undoshlar imlosi” yuzasidan tegishli nazariy ma’lumotlar mavzular o‘tilgach, quyidagicha topshiriq beriladi: So‘zlarni o‘qing, xato yozilgan o‘rinlarni topib, o‘zbek tilning imlo qoidalariga mos ravishda ularni to‘g‘rilang va daftaringizga ko‘chirib yozing. Bugalter, hayol, xayo, xolol, momila, xuqiq, rektir, kanferensiya, kampyuter, maylis va hokazo. To‘g‘ri yozilishi: buxgalter, xayol, hayo, halol, muomala, halol, huquq, rektor, konferensiya, kompyuter, majlis.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi - fani hozirgi kungacha boy tajriba to‘pladi. U pedagogika fanlari sistemasidagi mustaqil fan sifatida shakllandi, rivojlandi, rivojlanishda davom etmoqda. Uning mazmuni o‘zbek tili ta ’limining izchil sistemasini ishlab chiqish, o‘zbek tili darslarini tashkil qilishga oid metodik tavsiyalami tanlash va amaliyotga joriy etishgina emas, balki metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til o‘rganishning interaktiv metodlarini o‘zida

ifodalagan ilmiy asoslarini ishlab chiqish hamdir. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi, birinchi navbatda, falsafa va umumiy tilshunoslik hamda tilshunoslikning nazariy asoslari bilan chambarchas bogiliqdir. Yaxshi bilamizki, til va nutq ajralmas yaxlitlikni tashkil etadi. Shunga qaramay, ular ayni bir xil hodisa ham emas. Ular nutqiy faoliyatning asosini tashkil qiladi. Insonning nutqiy faoliyati zimmasidagi vazifalar nihoyatda ko‘p. Shulardan biri kommunikativlik vazifasidir. Bu uning kishilar orasidagi aloqa, munosabat — muomalani ta ’minlashi bilan bogiliq. Bunda axborotlami boshqalarga yetkazish, o‘zaro fikr almashish amalga oshadi. Uning vositalari esa turli ko'rinishlarga ega. Xususan, ogzaki, yozma, shuningdek, tilshunoslikda paralingvistik deb nom olgan vositalar bo‘lishi mumkin. Oxirgi turkumga har xil imo-ishoralar, mimikalar kiradi. Bunda bevosita nutqning o'zi ishtirok etishi ham, ishtirok etmasligi ham mumkin. O‘zbek tilini o‘qitish tarixi ancha qadimgi davrlaiga borib taqaladi. Sharqda DC—XV asrlarda ijtimoiy - madaniy hayotda yuksalish, ilm - fanda taraqqiyot kuzatiladi. Bu davrda 0‘rta Osiyoda yashab, ijod qlgan qomusiy olimlarimiz turli fanlar bo‘yicha erishgan yutuqlari bilan jahon madaniyati, ma’rifati, ilmu fan rivojiga ulkan hissa qo‘shdilar. Markaziy Osiyoni jahonga tanitgan Al-Xorazmiy, Abu Iso at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ismoil Juijoniy, Marg‘inoniy, Zamahshariy, Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi ulkan mutafakkirlar bebaho kashfiyotlari bilan o‘z xalqlarining shuhratini olamga yoydilar. Ular ta’lim va taibiya bobida ham o‘chmas iz qoldirdilar. Chunonchi, buyuk mutafakkir A1 -Xorazmiy “Sezgi orqali bilish bu qisman bilish bo‘lsa, mantiqiy bilish haqiqatdir”, — deydi va bilim egallashda ijodiy faoliyatni asos qilib oladi. Sharqda “Ikkinchi muallim” deb tan olingan (Arastudan keyin) Abu Nasr Forobiyning “Ta’lim-tarbiya berish usullari” asaridagi “Bilim, ma’rifat, yaxshi axloq bilan bilimdon, ma’rifatli, yetuk, mukammal inson yetishadi. Buning uchun ta’lim jarayoni oiqituvchi tomonidan to‘g‘ri tashkil etilishi, boshqarilishi va ma’lum maqsadlarga yo‘naltirishi lozim”, — degan fikri “0‘zbek tili o‘qitish metodikasi”da ham asosiy, bosh mezon vazifasini o‘taydi. Abu Rayhon Beruniy har bir ishning kishi ruhiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo‘lishiga alohida e’tibor beradi: “Bizning maqsadimiz talabani toliqtirib qo‘ymaslikdir. Agar talaba bir masaladan boshqa bir masalaga o ‘tib tursa, u xuddi turlituman bog‘larda sayr qilgandek bo‘ladi. Har bir yangi narsa o‘iganuvchiga rohat bag‘ishlaydi”, — deydi buyuk alloma. Bu xulosa til hodisalarini o‘rganishda, lisoniy materiallami joylashtirish va o‘qitishda dasturulamal bo‘lishi shubhasizdir.

Mustaqillik sharofati bilan ta’lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratildi. "Ta’lim to‘g‘risida“gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, "Davlat ta’lim standartlari"ning joriy qilinishi ushbu jarayonlardagi eng muhim bosqich sifatida xarakterlanadi. Bu hujjatlarda o‘zbek tili ta’limi oldiga ham qator

talablar qo‘yildi. Shu asosda o‘zbek tili dastur va darsliklari ham yangilandi. Yangilangan o‘zbek tili darsliklarining ikki avlodi nashr qilindi va o‘qitishga joriy etildi. O‘zbek tili o‘qitishga bo‘lgan qarashlar, talablar o‘zgardi. Darsliklar ana shu talablar asosida tuzildi. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi pedagogik fan sifatida boy tajriba to‘plagan bo‘lsa-da, bu fanning o‘qitilishi bilan bog‘liq bir qator muammolar ham yuzaga keldi. Buning sababi shundaki, ta’lim jarayoniga bir qator zamonaviy texnologiyalar kirib keldi va kirib kelmoqda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘zbek tili darsliklari yangilandi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darsliklar yaratildi. Bular bilan bog‘liq qarashlar va tahlillar, uslubiy ko‘rsatmalar o‘zbek tili o‘qitish metodikasining o‘rganish obyektiga aylanishi kerak. Shu ma’noda bu fanning mazmunini quydagicha belgilash mumkin: o‘zbek tili ta’limining izchil tizimini ishlab chiqish, o‘zbek tili darslarini tashkil etishiga oid metodik tavsiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etish, shu bilan birga metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til o‘rgatishning interfaol metodlarini o‘zida aks ettirgan ilmiy asoslarini ishlab chiqishdir. Bu fan egallangan bilimlarni pedagogik amalyotga joriy etish, ilg‘or pedagogik texnologiyadan unumli foydalanishga yo‘naltirilgan. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi ijodiy tafakkur sohibini shakllantirishning didaktik asoslarini o‘rganadi. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi fani yosh avlodga o‘zbek tilidan nimani?, qancha?, qanday? o‘rgatish kerak degan savollarga javob beradi. Til o‘qitish metodikasini o‘rganish turli ta’lim bosqichlariga mos, qulay metodlarni izlash, tanlash, amaliyotda qo‘llay bilishdir. O‘zbek tili o‘qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli va unumli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy — ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, o‘quvchilarda milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirish va talaba shaxsini ma’naviy boyitishdan iborat. Til o‘qitish metodikasining asosiy vazifasi talabalarni erkin, ijodiy, mustaqil fikrlarini og‘zaki va yozma shaklda, adabiy til meyorlari asosida to‘g‘ri ifodalay oladigan, bir ma’noni turli holatlarda berish ko‘nikmasi shakllangan yetuk murabbiylarni tarbiyalab yetkazishdir.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi fani o‘zining nazariy asoslariga va ilmiy tadqiqot metodlariga ega. Bular quyidagilar:

1. Kuzatish. Tilshunos va metodist olimlar ilmiy anjumanlarda, vaqtli matbuotlarda, berib borilayotgan uslubiy maqolalarni, pedagogik o‘qishlarda o‘qilayotgan ma’ruzalarni o‘qib va eshitib, kuzatib boradilar, zamonaviy dars namunalarini kuzatib, ulardan tegishli xulosalar chiqaradilar. Bu usul orqali o‘zbek tili o‘qitish bilan bog‘liq muammolar o‘rgatiladi, yangicha qarashlar va metodlar aniqlanadi.

2. Tajriba o‘tkazish. Metodist — olimlar o‘z ilmiy tadqiqotlari yuzasidan erishilgan natijalar haqida ilmiy anjumanlarda o‘rtoqlashadilar, o‘zlari ilgari surayotgan, qo‘llamoqchi bo‘lgan metodlarini asosli va ishonchli mezonlar asosida

ma’lum maktab yoki akademik litseylarda tajribadan o‘tkazadilar. Natijalarni tahlil qiladilar. Bu usul tavsiya qilinayotgan ilmiy va uslubiy farazlarning ishonchliligini, asosli ekanligini isbotlashga zamin yaratadi.

3. Test o‘tkazish. Bu usul orqali o‘quvchilarning nazariy bilimlari, ko‘nikma va malakalari o‘rganiladi. Test savollari o‘tkazish o‘quvchi va talabalarning bilimi, egallagan amaliy ko‘nikmalari haqida umumlashgan xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

4. Anketa va savol varaqalari tarqatish. Bu usul orqali o‘qituvchi va o‘quvchilarning fanga bo‘lgan munosabati, qiziqishlari va istaklari o‘rganiladi.

5. Metodik merosni o‘rgatish. O‘zbek tilini o‘qitish tarixi qadimgi davrlarga borib taqalsa-da, uni o‘qitish metodikasi uzoq tarixga ega emas.

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi birinchi navbatda falsafa va umumiy tilshunoslik bilan, tilshunoslikning nazariy asoslari bilan chambarchas bog‘liq. Maktablarda o‘qitiladigan o‘zbek tili predmetining ilmiy asosini va mazmunini, dastavval til haqidagi fan belgilab beradi. O‘zbek tili o‘qitishning to‘g‘ri tashkil etilishi va samarali bo‘lishi til to‘g‘risadagi lingivistik xulosalarning ilmiy va aniq bo‘lishiga bog‘liq. O‘zbek tili o‘qitish metodikasini va uning taraqqiyotini tilshunoslik fanisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi pedagogika va psixologiya fanlari bilan ham bog‘liq holda ish olib boradi. Pedagogika ta’lim — tarbiya prinsplarini belgilab beruvchi fandir. O‘zbek tili darslarida ham ta’lim prinsplari qo‘llanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. O‘zbek tili. Adabiyot. O‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun) . Toshkent. “Sharq” nashriyot—matbaa konserni. 1999-yil, 1-maxsus son.

2. O‘zbekiston Pespublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni”. 1997B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyadova. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2006-y.

3. A. G‘ulomov, M. Qodirov “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent. “Universitet” nashriyoti. 2001-y.

4. “O‘zbek tilining asosiy imlo qoydalari” Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti 1995-y.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISH ASOSIY MAQSADIMIZ!

Boltayeva Gulhayo Shukurjonovna
Farg‘ona viloyati Quvasoy shahar 29-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi
Saidaxmedova Sarvinozxon Muxsinboy qizi
Farg‘ona viloyati Quvasoy shahar 29-umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7491095

Annotatsiya: Ushbu maqolada Prezident Sh. M. Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasiga munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Murojaatnoma, Oliy Majlis, Insonga e’tibor, sifatli ta’lim yili, interfaol, metod, pedagog, Yusuf Xos Hojib.

Yangicha qarash, yangi g‘oya va yangi rejalargina davlatning istiqboliga, vatan ravnaqi va xalqimizning farovonligiga daxldor harakatlarni, amaliy natijalarni belgilab berishi aniq. Aniq rejalar bo‘lmasa, shunga muvofiq harakat va faoliyat bo‘lmasa, istiqbolli rejalarni amalga oshirish mushkul.

Murojaatnomada xalqimiz istiqboli hamda mamlakat ravnaqi uchun har bir rahbar, har bir fuqaro qanday ish tutishi va yuritishi bilan bog‘liq vazifalar aniq va keskin ravishda belgilab berildi.

Insoniyat mavjudki qaysi davrlarda yashamasin, doim yaxshi, farovon, tinch-osuda hayotni orzu qilib kelgan. Yaxshi hayotni amalga oshirish uchun har bir xalqning, millatning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari, rejalari bo‘lgan. Mamlakatimizda bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar aynan inson qadrini ulug‘lash tamoyili asosida olib borilmoqda. Prezident Sh. M. Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabrdagi murojatnomasida 2022-yil sarhisoblariga va 2023-yilda mamlakat taraqqiyotining eng muhim ustivor vazifalariga to‘xtalib o‘tdi.

2023-yilni “Insonga e’tibor, sifatli ta’lim yili” deb e’lon qilishni taklif etildi. Bu albatta bejiz emas. Chunki bilim bor joyda, rivojlanish, taraqqiyot, o‘zgarish ro‘y beradi. Shuningdek Sh. Mirziyoyev ta’lim sifatini oshirish- Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘li ekanligini ta’kidlab o‘tdi. “Ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta’lim dargohlariga borib, o‘qituvchi va murabbiylar bilan ko‘proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo‘yicha ular qo‘ygan masalalarni birgalikda hal qilishimiz kerak. Biz kelgusi yil Davlat dasturiga xalqimiz ko‘targan barcha masalalarni aniq yechimlari bilan kiritamiz. Ushbu jarayonlarda deputat va senatorlar, mahalla vakillari, ziyolilar, yoshlar, tadbirkorlar

va keng jamoatchiligimizdan faol bo‘lishlarini, yangi-yangi taklif va tashabbuslar bildirishlarini so‘rayman”- dedi davlat rahbari.

Ushbu murojatnomadan kelib chiqib biz oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilariga sifatli ta’limni tashkil qilishda muhim vazifalarni belgilab berdi. Sifatli ta’lim, o‘z o‘rnida sifatli kadrlarni mamlakatga yetkazib beradi. Shu jihatdan oliy ta’lim muassasalari professor -o‘qituvchilari ta’lim sifatini yanada oshirishga e’tibor berishi, malaka oshirishi, o‘z ustida ishlashi, ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishini taqozo qiladi. Ta’lim sifatini yaxshilashda nafaqat pedagog xodimlar mehnati, balki talabalarni ilmga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish ham juda muhimdir.

Prezidentimiz birinchi navbatda, e’tibor Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratishni ta’kidlar ekan, bunda o‘qituvchilarning maqomini, ularning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishni Konstitutsiyada alohida belgilash zarurligi qayd etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasini xalq ta’limi tizimi xodimlari katta qiziqish va zo‘r hayajon bilan kuzatdi.

Murojaatnomada inson qadrini ulug‘lash va orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish davlat siyosatining muhim maqsadlaridan biri ekaniga alohida urg‘u berildi. Jumladan, **“Avval - inson, keyin - jamiyat va davlat”** degan g‘oyani Konstitusiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirishimiz kerakligi, bu jarayonda, eng avvalo, ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, farzandlarimizning xalqaro standartlar asosida bilim olishini ta’minlash kunning muhim talabi ekani qayd etildi. Xalqimiz farovonligi va jamiyatimiz rivoji uchun katta o‘zgarishlarga asos bo‘lib xizmat qiluvchi mazkur nutqda yoshlar masalasiga, xususan, ularning sifatli bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun muhim tashabbuslar ilgari surilgani biz, soha xodimlariga katta xursandlik baxsh etish bilan birga zimmamizga ulkan mas’uliyat yukladi. Yoshlarning sifatli ta’lim olishini ta’minlash borasidagi tub islohotlar zamirida yosh avlodning barkamol bo‘lib ulg‘ayishiga qaratilgan yuksak e’tibor, o‘g‘il-qizlarni bilimli va vatanparvar insonlar qilib tarbiyalash g‘oyasi mujassam. Mazkur fikrlarga hamohang tarzda Prezidentimiz tomonidan kirib kelayotgan **2023-yilga “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili**” deb nom berish taklif etilgani barcha yurtdoshlarimizning ko‘nglidagi gap bo‘ldi. Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida barpo etishning dastlabki sharti sifatli ta’lim ekani va eng katta investitsiya, avvalo, ta’limni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilishi lozimligi, shu maqsadda kelgusi yildan boshlab maktab ta’limini xalqaro ta’lim dasturlari asosida butunlay isloh qilish boshlanishi aytildi. Murojaatnomada ta’kidlanganidek, 2023-yildan boshlab yurtimizdagi umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida mutlaqo yangicha metodika asosida yaratilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi.

Prezidentimiz o‘qituvchilarning maqomini, ularning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ushbu mezonni Konstitusiyada alohida belgilash zarurligini ta’kidlab o‘tdi.

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, bolalarimiz maktabdan ona tili va chet tillarini puxta o‘zlashtirib, kompyuterda ishlashni o‘rganib chiqishi zarur. Farzandlarimizni kasb-hunarlarga, san’at va madaniyatga qiziqtirishimiz lozim. O‘quvchilarda erkin, tanqidiy va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Yurtboshimiz: “Milliy o‘zligimiz timsoli, ma’naviyatimiz asosi bo‘lgan ona tilimizga e’tibor yanada kuchaytiriladi. Albatta, chet tilini bilish - zamon talabi. Ammo ona tilini bilishni majbur qilish kerak”, - deya ta’kidladi.

Shu bois, 2023 yildan maktab ta’limini xalqaro ta’lim dasturlari asosida butunlay isloh qilish boshlanadi. Sifatli ta’limga erishish yo‘lidagi islohotlar natijasida bashorat qilib bo‘lmaydigan xavf-xatarlarni bartaraf etishga qodir avlod, jamiyat shakllanib boradi. Zero, donishmand bobomiz Yusuf Xos Hojibdan Prezidentimiz keltirgan iqtibosda ta’kidlanganidek, **“Zakovat bor joyda ulug‘lik bo‘ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo‘ladi”.**

Yurtimizda yashayotgan yoshlarning sifatli ta’lim olishi va kelgusida barkamol avlod bo‘lib yetishishini ta’minlashda mazkur nutqning tarixiy ahamiyati va o‘rni g‘oyat muhim. Muhtaram Yurtboshimizning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasini tinglab, kelayotgan Yangi yil har bir vatandoshimiz uchun muhim islohotlar yili bo‘lajagini his etdim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 2022-yil.
2. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar – T. : O‘zbekiston, 2001.
3. Internet saytlari: www. ziyonet. uz

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕНСИИ ПО СЛУЧАЮ ПОТЕРИ КОРМИЛЬЦА НА ОСНОВЕ ОПЫТА РОССИИ И УЗБЕКИСТАНА

Бекмуродова Зухра Кадам кизи
Город Ташкент, Бектемирский район
Студент магистратуры направления «Трудовое право» (70420113)
Ташкентский государственный юридический университет
https://doi.org/10.5281/zenodo.7491101

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ практики назначения пенсии по случаю потери кормильца Узбекистана и России. Изучены статистические данные, правовые основы и положения, регулирующие аспекты по пенсию по случаю потери кормильца.

Ключевые слова: пенсии по случаю потери кормильца, иждивение, стаж работы, трудовое увечье.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston va Rossiyada boquvchisini yo‘qotganlik munosabati bilan pensiya tayinlash amaliyotining qiyosiy tahlili keltirilgan. Statistik ma’lumotlar, boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya ta’minoti masalalarini tartibga soluvchi huquqiy asoslar va qoidalar o‘rganildi.

Kalit so'zlar: boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari, qaramlik, ish staji, ishlab chiqarish jarohati.

Annotation: This article provides a comparative analysis of the practice of assigning a pension on the occasion of the loss of a breadwinner in Uzbekistan and Russia. The statistical data, legal bases and provisions regulating aspects of the survivor's pension have been studied.

Key words: survivor's pensions, dependency, length of service, industrial injury.

На сегодняшний день потеря кормильца одной из членов семьи считается юридическим фактом. Однако, для назначения социальной поддержки важен не сам юридический факт – смерть, а последствия, которые возникают после, то есть лишение членов семьи финансовой возможности к существованию.

По мнению ученого И. В. Григорьева, пенсия по случаю потери кормильца представляет собой ежемесячную денежную выплату, назначаемую на определенный период (или бессрочно), соизмеримую с прижизненными трудовыми доходами кормильца, обеспеченную государством, выплачиваемую в целях компенсации нетрудоспособным членам семьи заработной платы и иных выплат и вознаграждений кормильца, утраченных в связи со смертью

этого лица, право на которую определяется в соответствии с законодательством [1].

Профессор Гущин И. В. выделяет следующие характерные признаки трудовой пенсии по случаю потери кормильца: 1) ежемесячные денежные выплаты; 2) выплаты алиментарного характера; 3) выплаты из Фонда социальной защиты или государственного бюджета; 4) назначаемые нетрудоспособным членам семьи умершего; 5) выплаты лицам, состоящим на иждивении умершего; 6) выплаты в размерах, зависящих от прошлого заработка кормильца[2].

В конвенции МОТ «о пособиях по инвалидности, по старости и по случаю потери кормильца» (№ 128) 1967 года дается понятие термину «на иждивении», согласно которому это состояние зависимости, существующему в установленных случаях.

Основы права социального обеспечения заложены в статье 39 Конституции Республики Узбекистан, где прописано, что каждый имеет право на социальное обеспечение в старости, в случае потери кормильца и в других случаях, которые предусмотрены данным законом.

Исходя из статистики данных Государственного комитета Республики Узбекистан на 1 октября 2020 года число пенсионеров составило 3 785 520 человек, это составляет более 10% населения республики. Из них: 74, 1 % - получают пенсию по возрасту, 9, 9 – по инвалидности, 5% - по случаю потери кормильца и 11% - различные социальные пособия.

Условия предоставления пенсии по случаю потери кормильца рассмотрены в 4 Главе закона Республики Узбекистан «О государственном пенсионном обеспечении граждан». В данном законе не приведено разъяснение сущности самого понятия пенсии по случаю потери кормильца.

Согласно статье 19 главы 4 закона «О государственном пенсионном обеспечении граждан», право на получение пенсии по случаю потери кормильца имеют члены семьи умершего кормильца, которые были нетрудоспособны и находились на его иждивении. В этой же статье перечислены перечень лиц, считающихся нетрудоспособными членами семьи:

а) дети, братья, сестры и внуки, не достигшие 18 лет или старше этого возраста, если они стали детьми с инвалидностью до достижения 18 лет. При этом братья, сестры и внуки — при условии, если они не имеют трудоспособных родителей;

[1] Григорьев, И.В. Право социального обеспечения[Текст]: учебник и практикум для СПО / И.В. Григорьев, В.Ш. Шайхатдинов. - М.: Юрайт, 2019. - 425 с.

[2] Гущин, И.В. Право социального обеспечения Республики Беларусь: учеб. пособие / И.В. Гущин, С.В. Агиевец. - Гродно: ГрГУ, 2004. – С. 111.

б) отец, мать, отчим, мачеха, жена, муж, если они достигли пенсионного возраста, предусмотренного статьей 7, либо являются лицами с инвалидностью;

в) один из родителей или супруг либо дед, бабушка, брат или сестра, независимо от возраста и трудоспособности, если он (она) занят уходом за детьми, братьями, сестрами или внуками умершего кормильца до достижения ими возраста, дающего право работающим находиться в отпуске без сохранения содержания по уходу за ребенком, и не работает;

г) дед и бабушка — при отсутствии лиц, которые по закону обязаны их содержать. [3]

Студенты либо ученики общеобразовательных учреждений имеют право на получение пенсии по случаю потери кормильца за весь период обучения до момента достижения возраста 23 лет. Также отчим и мачеха правомерны получать данный вид пенсии наравне с отцом и матерью, при условии, что воспитывали или содержали умершего пасынку более 5 лет до достижению 18-летнего возраста. Для всех нетрудоспособных членов семьи назначается одна общая пенсия.

В России же, согласно законодательству различаются следующие виды пенсии для граждан по случаю потери кормильца:

- Страховая пенсия;
- Социальная пенсия;
- Государственная пенсия.

Все виды пенсий по случаю потери кормильца устанавливаются в случае смерти лица, финансовые доходы которого являлись единственным или основным источником доходов семьи.

Лица, которые имеют право получать пенсию по случаю потери кормильца в России аналогичны перечню лиц национального законодательства: это супруг, родственники умершего, то есть дети, родители, братья, сестры, усыновленные дети и отчим и мачеха.

Согласно нормам российского законодательства, понятие «нетрудоспособность» включает в себя такие категории как отсутствие возможности заниматься трудовой деятельностью, возраст, инвалидность.

Одним из отличительных черт национального и российского законодательства касательно пенсии по случаю потери кормильца является тот факт, что в России есть разновидности назначения пенсий по случаю потери кормильца. Например, в России страховая пенсия по потери кормильца не будет назначена нетрудоспособному члену семьи, когда смерть кормильца возникла вследствие совершения преступления, в результате которого возникла

[3] Закон «О Государственном пенсионном обеспечении граждан», статья 19.

причина смерти. В данном случае назначается социальная пенсия по потери кормильца.

Помимо этого, есть некоторые отличия в назначении пенсии по случаю потери кормильца в Узбекистане и России. В Узбекистане пенсия в следствие умершего кормильца по общему заболеванию и увечью назначается если он имел необходимый стаж, необходимый для назначения пенсии по инвалидности.

Пенсии по инвалидности вследствие общего заболевания назначаются при наличии следующего стажа работы ко времени наступления инвалидности:

Возраст	**Стаж работы (в годах)**
до достижения 23 лет	2
от 23 лет до достижения 26 лет	3
от 26 лет до достижения 31 года	5
от 31 года до достижения 36 лет	7
от 36 лет до достижения 41 года	9
от 41 года до достижения 46 лет	11
от 46 лет до достижения 51 года	14
от 51 года до достижения 56 лет	17
от 56 лет и старше	20

[4]

Но если смерть возникла из-за трудового увечья или заболевания в процессе работы, то назначается в независимости от стажа работы.

В России назначение пенсии по случаю потери кормильца, как правило, зависит от вида пенсии которая назначается Пенсионным фондом. К примеру, в случае государственной пенсионной поддержки это зависит от того к какой категории работников он относился (военнослужащий, космонавт или гражданин, погибший в результате техногенной катастрофы).

Согласно статьи 24 конвенции МОТ о «о пособиях по инвалидности, по старости и по случаю потери кормильца» (№ 128) 1967 года предусмотрено предоставление родственниками пенсии по случаю потери кормильца в случае, если кормилец имеет установленный правилами стаж и 15-летняя выплата взносов.

[4] закон «О Государственном пенсионном обеспечении граждан» , глава 3, статья 17.

В заключение, исходя из вышеупомянутых пунктов, можно прийти к выводу, что пенсионная система по случаю потери кормильца в определенных моментах разнятся, однако круг лиц, имеющих право на получение данного вида пенсии аналогичны. Как в России, так и в Узбекистане необходим факт, доказывающий что данный родственник находился на иждивении у умершего кормильца. Также, стоит отметить, что законодательно пенсии по потери кормильца урегулированы достаточно ясно. Однако, нужно учесть, что в практике могут возникнуть моменты, когда при назначении и выплаты пенсии по потери кормильца возникают коллизии, которые необходимо решать на законодательном уровне.

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан «О государственном пенсионном обеспечении» [Электронный ресурс] — Режим доступа. — URL: https://lex.uz/docs/112312#126493
2. Конвенция МОТ о «о пособиях по инвалидности, по старости и по случаю потери кормильца» (№ 128) 1967 года;
3. Григорьев, И. В. Право социального обеспечения [Текст]: учебник и практикум для СПО / И. В. Григорьев, В. Ш. Шайхатдинов. - М. : Юрайт, 2019. - 425 с.
4. Гущин, И. В. Право социального обеспечения Республики Беларусь: учеб. пособие / И. В. Гущин, С. В. Агиевец. - Гродно: ГрГУ, 2004. – С. 111.
5. Веревкин И. Е. Проблемы пенсионного обеспечения по случаю потери кормильца //Вопросы российской юстиции. – 2019. – №. 4. – С. 280-286.
6. Филь Г. Г. Страховая пенсия по случаю потери кормильца: правовой анализ //Аллея науки. – 2018. – Т. 5. – №. 4. – С. 733-735.
7. Хожабеков, Муфтулла. "Анализ теории дополнительной работы по трудовому законодательству западных стран. " Общество и инновации 3. 7/S (2022): 310-318.
8. https://uz. sputniknews. ru/20211117/v-uzbekistane-svyshe-4-mln-semey-poluchayut--pensii-i-posobiya-21398818. html

BOSHLANG'ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EKALOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM AHAMIYATGA EGALIGI

Abdisamatova Mohinur Abdijalilovna
Termiz davlat Pedagogika instituti boshlang‘ich ta’lim
fakulteti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7491113

Annotatsiya: Hozirgi rivojlanayotgan davrda insonlarning tabiatga bo‘lgan e'tiborini kuchaytirish. Bu ishni avvalo yosh avlodga ekalogik ma'daniyatni shakllantirishda boshlashingiz zarurligi to‘g‘risida.
Kalit so‘zlar: ekalogiya, ma'daniyat, tabiat, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari.

Buyuk bobokolanimiz Abu Rayxon Beruniy "Inson yer yuzini obod etish va uni boshqarib turish uchun unga aql-zakovat ato etilgan, shuning uchun har-bir inson yuksak axloqli bo‘lishi lozim"- deb aytgan edilar. Hozirgi vaqtda "ekalogiya" so‘zi ko‘pincha tabiat va atrof-muhit so'zlari bilan birlashtiriladi. Ammo hayot amaliyotining o‘zi shuni ko‘rsatadiki tabiat ekalogiyasini ruh ekalogiyasisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ekalogik ma‘daniyatni o‘quvchilar ongiga shu orqali tushuntirish zarurdir. Bu ma'daniyatni o‘quvchilarda shakllantirish orqali kelajagimizni poydevor qo‘ygan bo'lamiz. Atoqli pedagog V. A. Suxomlinskiy "Bolalarga jonim fido" asarida "Men bolalar "Alifbo" ni ochib birinchi so‘zni hijjalab o'qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib kitob- tabiat kitobini mutolaa etishlarini istar edim"- deb ta'kidlagan edilar.

Ekalogik ta'lim-tarbiya deganda o‘quvchilarga muayyan maqsadda pedagogik ta'sir ko‘rsatish tushuniladi. Olamdagi narsalarning hammasi butun borliq mavjudod, tevarak-atrof, dala-tog‘ hamma-hammasini muhofaza etish ekalogik ta'lim mazmunini tashkil etadi.

Ekalogik tarbiya vazifalariga jonli va jonsiz tabiatni asrash, so‘lim maskanlarni, maydonlarning tozaligi uchun kurash kabilar kiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga bu ma‘daniyatni xalq tajribasidan kelib chiqqan holda o‘rgatish zarurdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekalogik ma'daniyatni shakllantirish ishlarini avvalo ota-ona hamkorligida olib borilishi lozim. Ya'ni ota-ona bu tarbiyani berib bormasa maktabda berilgan 5-6 soatgina dars bunday tarbiya uchun yetarli emas. Ba'zi ota-onalar farzandlariga qo‘lidan kelgancha uyni ozoda tutish, o‘simliklarni behuda yulmaslik kabi nasihatlarni beradilar. Shuning o‘zi ekalogik tarbiyaning boshlang‘ich kurtaklaridir. Ayrim ota-onalar bu masalaga e'tiborsizlik bilan qaraydilar. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ekalogik ma'daniyat haqidagi tushunchani uning ruhiyatiga singdirish orqali o‘quvchilarda tabiatga bo‘lgan

muhabbat, uning go‘zalliklaridan zavq olish hissini ham shakllantirish mumkin. O‘quvchilarda ekalogik ma'daniyatni rivojlantirish uchun muntazam ta'sir zarur, ammo hamma darsda bu narsani tushuntirish ham o'rinli bo‘lmaydi. O‘quvchilarga bu tarbiyani turli xalq og'zaki ijodi namunalaridan misollar keltirib, turmushga, hayotga bog‘lagan holda tushuntirilsa ularning ongiga yaxshiroq yetib boradi.

Bolalarga bu tarbiyani berish uchun o‘qituvchida juda katta tajriba mahorat bo‘lishi lozim, o‘qituvchida bunday ko‘nikma bo‘lmasa o‘z maqsadiga erisha olmaydi. Hozirgi kunda maktab o‘quvchilariga o'tiladigan "Tabiiy fan" darslik kitobi o‘qituvchilar uchun umumiy qo'llanmalar, ya'ni unda bu tarbiyaga oid tushuncha va masalalar keng qilib tushuntirilib rasmlar asosida boyitib tasvirlangan. Bundan tashqari o‘quvchilarga bu bilimlarni berish uchun bolalar bilan suhbat tashkil etilib, bu suhbatda o‘quvchilar tabiatda qanday turdagi o‘simliklar, daraxtlar borligi, ularga qanday munosabatda bo‘lish kerakligi to‘g‘risida o‘z mulohazalarini bayon etadilar. Bu fikrlarni umumlashtirib o‘qituvchi o‘z xulosasini bayon etib, qanday ishlar bajarish kerakligini aytadi.

O‘qituvchi bolalarni tabiat qo‘yniga sayohatga olib borish orqali ham o‘quvchilarning ekalogik immunitetini bir pog'onaga ko'tarilishiga sabab bo‘lishi mumkindir. Bu jarayonning afzalligi shundaki o‘quvchilar bu paytda tabiatdagi narsalarni o‘z ko'zlari bilan ko‘radi, qo‘llari bilan ushlaydi va ularning qay darajada tabiat uchun zarur ekanligi haqida ko‘nikma paydo bo‘ladi. Yana shunday jarayonlarni o‘qituvchi tashkil etsinki bu vazifalarni bajarib o‘quvchilar tabiatni asrash uchun o‘z hissalarini qo‘shganliklarini his qilsinlar va tabiatga bo‘lgan mehri yanada ortsin. Bunday jarayonlarga "Har bir o‘quvchiga bir tup ko‘chat", "sinfxonam kichik gulzor", "qushlar bizning do‘stimiz" kabi tadbirlarni yaqqol misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bunday tadbirlarni tez-tez o‘tkazilib turilsa "yashil makonimiz" uchun ozroq bo‘lsa ham yordam bergan bo'lamiz va o‘zimiz yashaydigan muhitga e'tiborsizlik bilan qaramaydigan bo'lamiz.

Xulosa o‘rnida birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning so'zlarini keltirmoqchiman: "Tabiatga yaqinlik jonajon o‘lkaning benihoya go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish ma'naviyatga oziq beradi, kuchaytiradi". Bu so‘zlar bilan birinchi Prezidentimiz nima demoqchilar har bir insonning tabiatga bo‘lgan muomalasi u insonning qanday ma'daniyat sohibi ekanligini ko'rsatuvchi oynadir demoqchilar. Shu sababli barchamiz bu narsani oilamizdan yaxshilab shakllantirishimiz va kelajak hayotimizga bee'tibor bo‘lmaslikni o'rganishimiz zarurligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Atayeva, F. Rasulov, S. Hasanov. "Umumiy pedagogika" o‘quv qo‘llanma Toshkent-2011.

2. O. Yo‘ldoshev, A. Abdurashidov "Umumiy pedagogika" Toshkent-2011.

3. O‘zbekiston Respublikasidagi "Ta‘lim to‘g‘risidagi qonuni"

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O‘zbekiston strategiyasi" 2021-yil.

5. Rahima Mavlonova, Nargiza Rahmonqulova "Boshlang‘ich ta‘limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya". O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2013.

QORAQALPOQ XALQINING KELIB CHIQISHI VA QORAQALPOQLARNING DASTURIY MADANIYATI

Baymuratova Xurliman Kuatbayevna
QMU magistratura bo’limi “Etnografiya, etnologiya, va antropologiya” ta’lim yo’nalishi 2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7491115

Annotatsiya: Bugungi keltirilgan ushbu maqolada qoraqalpoq xalqining qadimgi madaniyati, rivojlanishi, kelib chiqish tarixi hamda hozirgi kundagi o’ziga xos bo’lgan urf-odatlari haqida so‘z yuritiladi. Siz bu maqola orqali qoraqalpoqlarning boshqa millat vakillaridan o’ziga xos bo’lgan jihatlari bilan ajralishini bilishingiz, o’rganishingiz va ma’lumotga ega bo’lishingiz mumkin.
Kalit so’zlar: etnografiya, millat, qadimgi davr, madaniyat, dastur va urf-odat.
Annotation: Today’s article talks about the ancient culture, development, history of the Karakalpak people, asa well as their unique traditions. Through this article you can learn, learn and get information about the unique aspects of the karakalpak from other nationalities.
Key words: ethnoghraphy, nation, ancient times, culture, tradition.

Qoraqalpoqlar uzoq yillar davomida ko’chmanchilik turmush tarzidan o’troqlikka o’tish jarayonini boshidan kechirdilar. Aholining asosiy qismi o’tov va paxsa uylardan iborat ovullarda yashardi. Keyinchalik qo’rg’on (qal’a) va shaharlar vujudga keladi. Qo’rg’onlarning to’rt tomoni devor yoki baland tepalar bilan o’rab olinardi. Qoraqalpoqlar bir necha urug’lardan shakllangan bo’lib, har urug’ a’zosi o’z urug’ining mustahkamligini ta’minlashga intilardi. Bir urug’ ichida qiz olish, qiz berish taqiqlangan edi. Shu boisdan boshqa urug’dan qiz olib qochish odatiy hodisa hisoblanardi. Ma’lum vaqt o’tgach qiz olib ketilgan joy ma’lum qilinib, qiz tomonning ota-onasi, yaqin qarindoshlari va urug’ oqsoqoli turli sarpolar bilan siylanib, to’yga rozilik olinardi. Urug’ ruhoniysi kelin-kuyovni nikohlab qo’yardi. To’yda baxshilar dostonlardan qo’shiqlar kuylashardi, aytishuvlar avjiga chiqardi. Polvonlar va botirlar kurashga tushardi. Islom dini qoraqalpoqlarning rasmiy dini edi. Aholi orasida turli yo’nalishdagi tasavvuf tariqatlari keng tarqalgan edi. Hunarmandlar 12-13 yoshli bolalarni shogirdlikka qabul qilib, ularga hunar sirlarini o’rgatganlar. Qoraqalpoq yoshlari Xiva va Buxoro madrasalarida ham ta’lim olganlar. Qoraqalpoqlarning xalq og’zaki ijodi juda boy. Qoraqalpoq folklor namunalari 20 jildligining nashr etilgani fikrimizning dalilidir. Ular so’z ustalari bo’lgan chechanlarni, baxshi (jirov)larine sevadilar. El oqsoqollari, rahbarlari yonidan qissaxonlar arimagan. O’zbeklarning Afandisi kabi qoraqalpoqlarning

qiziqchisi O’mirbek laqqisi bor. O’mirbek laqqi o’z og’zaki latifalarida ayrim shaxslar va jamiyatdagi kamchiliklar ustidan kuluvchi xalq qahramoni sifatida gavdalangan. U adolatsiz amaldorlar, qozilar, so’zi bilan ishi mos kelmaydigan ruhoniylar kirdikorlarini fosh qilib, mardlik, to’g’rilik, haqiqat, adolatni kuylagan. U o’z latifalarini yengil mutoyiba, achchiq hajv bilan ixcham ifodalab, tinglovchilarni xursand qilgan. Qoraqalpoqlarning qahramonlik dostonlari qadimdan ma’lum. Ulardan “Qirqqiz”, “Alpomish”, “Qo’blan”, “Mastposhsho”, "Edigey" dostonlarida qoraqalpoqlarning voqealarga boy tarixi kuylanadi. Masalan, "Edigey" dostonida Amir Temur, To’xtamish faoliyati bilan bog’liq voqealar bayon etilsa, "Qirqqiz" da qoraqalpoq xalqining XVIII asrda jung’or qalmoqlariga qarshi ozodlik kurashi, Xorazm xalqining Eron shohi Nodirshohga qarshi kurashi o’z badiiy ifodasini topgan. Qoraqalpoqlarning xalq qo’shiqlarida el-yurt yo’lboshchilari, qahramonlari Maman botir, Esangeldi mahram, Oydo’stbiy, Ernazarbiylar ulug’lanadi. Qozoq ma’rifatparvar olimi Cho’qon Valixonovning: "Qoraqalpoqlar sahrodagi birinchi shoir ham qo’shiqchilardir, shundan keyin qirg’izlar va turkmanlar", degan so’zlari bejiz aytilmagan. Qoraqalpoq adabiyotida XVII-XVIII asrlardagi tarixiy voqealarni badiiy shaklda aks ettirgan "Qirqqiz" dostoni alohida o’rin tutadi. Bu asar qoraqalpoq xalq qahramonlik eposidir. Bu doston atoqli xalq baxshisi (jirovi) Qurbonboy baxshi Tojiboy o’g’lidan 1939- 1940-yillarda yozib olingan. Asar erksevarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g’oyalari bilan sug’orilgan. Asarning bosh qahramoni Guloyim o’zining qirq nafar dugonasi va o’z sevgilisi Arslon bilan birga Eron shohi Nodirshoh hamda jung’or xoni Surtoyshi hujumidan yurtini himoya qilishga otlanadi. Guloyim Xorazmni ozod qilib, u yerda qoraqalpoq, turkman, o’zbek va qozoq xalqlari vakillarini birlashtirgan davlat tuzadi. Asarda Guloyim bilan bir safda turib jang qilgan Oltinoy, O’tbosgan, Arslon, Sarvinoz kabilar timsolida mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, insoniylik, ayni paytda dushmanga nisbatan shafqatsizlik g’oyalari o’z ifodasini topgan.

Qoraqalpoqlarning o’ziga xosligi, ularning xalq og’zaki ijodi, raqs va musiqa madaniyati va marosimlarida aks etgan bo’lib, bugungi kunda ular, xalqning ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning eng keng ommalashgan turlariga, jiraular (xalq oqinlari) va baxshilar (qo’shiqchimashshoqlar) va eposlar (Alpomish va Qirq qiz va boshqalar) kiradi. Qoraqalpog’iston ana’nalari hunarmandchilikda ham yaxshi namoyon bo’lgan. Qoraqalpoq qadimiy hunarmandchilik namunalaridagi sodda naqsh va shakllar, ularning Qadimiy va O’rta asr Markaziy Osiyo ko’chmanchilari san’ati bilan bog’liqligini ko’rsatadi. Qoraqalpoqlarning qadimiy hunarmandchiligi, ularning qadimiy turar joylari (yurtalar), zarur uy- ro’zg’or buyumlari va mavjud materiallari (yung, teri, suyak, yog’och, paxtalar) asnosida rivojlangan. XX asrning boshlarida yurtalarni bezatish uchun ayollar, bezakli matlar, rangbarang kigizlar tayyorlashgan, naqshli polos va sholchalar to’qishgan shuningdek, qiyqimlar to’qimachiligi bilan

shug’ullanishgan.

